

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

5A140801 Pedagogika ixtisosligi bitiruvchisi

AZIZOVA ZIROATNING

**“O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA
BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING YO'LLARI”**

mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

N.Erkaboyeva

Qo'qon – 2011

R e j a .

Kirish. Mavzuning dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati

I BOB. O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Ma`naviy barkamol inson tarbiyasi.

1.2. Komil inson tarbiyasi va milliy o`zlikni anglash.

II BOB. O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING AMALIY ASOSLARI

2.1. Qadriyatlar va komil inson tarbiyasi

2.2 Yoshlar ma`naviyatini shakllantirishda tarixiy xotiraning o`rni

2.3 O'zbekistonda mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasining yo'llari

Xulosa. Mustaqillik yillari yoshlar ruxiyatidagi umumiylik va xususiylik

Xulosa va tavsiyalar

Muammoga oid ilovalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Milliy mustaqillik qo'liga kiritilgan dastlabki oylardan boshlab, Prezident Islom Abdug'anievich Karimov milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirish masalasini shakllantirish masalasini jiddiy vazifa qilib qo'ydi. Buning sababi "Milliy mustaqil davlat bor ekan uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'zi ta'siriga olish uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga qaratilgan intilishlar va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrarligidir".

Keltirilgan shu iqtibosdan ko'rinib turibdiki, milliy g'oya, avvalo mamlakatimizning mustaqilligini mustahkamlash uchun zarur. Milliy istiqlol g'oyasi bajaradigan yana bir muhim funktsiya tarbiyaviy funktsiyadir. Milliy g'oyaning bu funktsiyasi globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda yana ham dolzarbroq ahamiyat kasb etadi. Globallashuv faqat iqtisod va siyosat sohasida emas, balki ma'naviyat va mafkura sohasida ham jadallashib bormoqda. Aytish mumkinki, ma'naviyat va mafkura sohasidagi globallashuv boshqa sohalarga nisbatan jadalroq yuz bermoqda. Buning sababi o'z manfaatlarini ko'zlayotgan ba'zi davlatlar mamlakatimizga mafkuraviy jihatdan zararli va vayronkor ta'sir o'tkazishga urinayotganda har qanday xalqning ma'naviyati boshqa xalqlar ma'naviyatidan ajralgan holda rivojlanmaydi.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi mamlakatimiz yigit qizlarini XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2010 yil "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi tasdiqlangan va unga asosiy vazifalar belgilangan.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi: mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasining yo'llari va yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganishdan iborat

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari:

1. Barkamol inson tushunchasini tasniflash.
2. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasining mohiyatini aniqlash
3. Komil inson tarbiyasida milliy o'zlikni anglashning ahamiyatini yoritish.
4. Milliy qadriyatlarning komil inson tarbiyasidagi imkoniyatlarini ochib berish.
5. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda tarixiy xotiraning o'rmini ochishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasining predmeti: Barkamol insonni tarbiyalash jarayoni

Magistrlik dissertatsiyasining ob'ekti: O'zbekiston ta'lim tizimidagi yoshlar

Ibn Arabiyning takidlashiga ko'ra, komil insonning yerdagi timsoli — hazrati payg'ambarimiz Muhammad Sallohu alayhi vasallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Alisher Navoiyning “Hayratul abror»idan olingan quyidagi baytda Muhammad Alay hissalomning Odam Atodan burun borligi aytilgan: «Ulki, odamdin burun u bor edi, Ham Nabi, ham sohibi asror edi». Bu hikoyat zamirida Ollahning odamga bo'lgan buyuk muhabbati yotadi.

Ketma-ketligi jihatidan olam birinchi, odam ikkinchi barpo bo'ldi. Lekin olamni yaratishdan mantiqan ko'zlangan maqsad odam edi. Odam — maqsad, olam— vosita edi. Buni Aziziddin Nasafiyning «Komil inson risolasida ham ko'rish mumkin. U aytadiki, inson olami sag'ir (kichik olam), ilohiy va moddiy olam birgalikda olami kabir» (ulug' olam)dir. Ulug` olamdagi jamiki narsa va xususiyalar kichik olatnda mavjuddir, inson katta olamning kuchaytirilgan nusxasidir.

Nasafiy komil insonga ta'rif berib, «komil inson deb shariat va tariqat va haqida yetuk bo`lgan odamga Boshqacha aytganda, komil inson shundaki, unda to`rt kamolga yelgan bo'ladi: yaxshi so'z, yaxshi fel, yaxshi axloq va maorif.

Demak, olim nazdida, komil inson, birinchidan, real odam, u yaxshi sifatlarni egallash orqali komillashadi. Ikkinchisi ham, komil inson martabasi tariqat va riyozat yoli bilan qo'lga kiritiladi. Komil inson xalqqa yaxshilik keltiradi, kishilar mushkulini oson qiladi, olamni esa balo kulfatlardan saqlaydi. Mavjudod ichra komil insondan ko'ra ulug'roq va donoroq narsa yo'q.

Tasavvufda komil inson, bir tomon dars, xudo bilan odamlar o'rtasidagi vositachi, ilohiy amr, g'oyabi asarni oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' zotdir. ikkinchisidan, komil inson istiloxi payg`ambarlardan boshqa zotlarga nisbatan shartli ravishda, extirom belgisi sifatida qo'llaniladi.

Shu bilan birga ayrim olimlar komil inson deganda real xos belgilarini nazarda tutushni maslahat beradilar. Masalan Nafasiy o'zining «Komil inson asarida uni ruh tishunchasi bilan aloqada olib tekshiradi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida qaraladi. Shu ma'noda, komil inson insonlarga xos bo'lgan

fazilatni ham ifodalashi mumkin. U — insonlarning eng mukammali, eng aqlli va eng donosi, ayni vaqtda Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, Ollohning xalifasi, Komil inson insonlar jamiyatidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir, U azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy ma'naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir.

Ushbu qarashlar, garchi birbiriga zid bo'lib ko'rinsada, aslida o'zaro yaqindir. Bu yerda, eng muhimi, inson kamoloti, buyukligi e'tirof etilishini ko'ramiz. Sunday qarashga binoan, inson va koinot, inson va iloh, inson va mavjudot o'zaro ayoqada, bog'lanishdadir. Ahli shariat tushunchasiga ko'ra, inson kamoloti azaldan ma'lum bo'lib, taqdiri azal tomonidan belgilab qo'yilgan.

Tasavvuf ahli aytadiki, insonga erkin faoliyat uchun inon ixtiyor berilgan, u harakat qilib komillikka erishuvi mumkin. Aziziddin Nasafiy kamolotning ikki belgisi bor, deb ta'kidlaydi: birinchisi, yaxshi axloq, Ikkinchisi, o'z-o'zini tashhish. Komil inson yaxshi axloqli, o'zo'zini tanigan insondir.

Biz yuqorida komil inson g'oyasi shariat va tasavvuf ilmida qanday qo'yilganligi to'g'risida ba'zi tafsilotlarni bayon etdik. Endi komil inson tushunchasining ilmiy-falsafiy jihatdan tavsiflanishining ba'zi jihatlarini qarab chiqaylik.

I. A. Karimov «O`zbekiston XXI asr bo'sag'asida asarida ko'p" masalalarni tushunishda «dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash zarurdir. (O'sha asar, 36bet), degan edi. Darhaqiqat, dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham mavjud. U din va diniy turmush tarzi bilan yonmayon yashab rivojlanib kelgan.

Komil insonni tushuntirishda dunyoviy fikrning asosida nima yotadi? Prezidentimiz uqtirganidek, odam tabiiy omillarga ko'ra o'zi mansub bo'ladigan irq elatni tanlay olmaydi, Lekin dunyo qarashini, axloqiy madaniyatini hech kimning tazyiqisiz va, ayniqsa zo'ravonligisiz o'zi tanlab olishi mumkin va lozim. Modomiki shunday ekan, mamlakatimizda huquqiy demokratik tamoyillar

asoslangan davlat, fuqarolik jamiyati qurish sari borayotgan ekanmiz; qanday dunyoqarashga asoslanishimiz kerak?

Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo'nalishdagi — ilmiy-falsafiy va diniymistik 'dunyoqarash mavjudligi o'z-o'zidan ayon. Ularni bir biriga qarama-qarshi qo'ymagan holda shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning asosiy qomusi — Konstitutsiyasida dunyoviy davlat qurish nazarda tutilganligi bois bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlari va boshqa muassasalardagi ta'lim-tarbiya tizimi jarayonida ilmiy-falsafiy dunyoqarash shakllantiriladi.

Yoshlarda dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo'nalishda bo'lishi, diniy dunyo qarash esa respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Chunki ilmiy-falsafiy dunyoqarashda diniy va milliy ekstremizm yo'lga o'ziga xos to'siq yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan komil inson masalasini ham ilmiy-falsafiy mazmunda tushunish, ta'lim-tarbiya ishini ham shu asosga qurish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda aytish kerakki, bu sohadagi ham nazariy, ham amaliy ish komil inson haqidagi barcha ijobiy fikrlar va qarashlarning eng foydali tomonlaridan, shu jumladan, islom qadriyatlaridan ham foydalanishga asoslanadi.

Ayni vaqida aytish lozimki, komil inson to'g'risidagi ilmiy-falsafiy ta'limot o'z mohiyati, ijtimoiy vazifasi va maqsadlari bilan diniy tasavvufiy qarashlardan farq qiladi.

Komil inson to'g'risidagi nazariya va uslubiyat metodologik jihatdan O'zbekiston Prezidenti asarlarida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida va boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqilgan. Shularga muvofiq ravishda, ta'lim tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarish, sog'lom, barkamol, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan. Ma'naviyati boy insongina komil inson bo'la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg'un bo'lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, keng ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson komil bo'ladi.

Yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lgan komil inson: nafs xurujini, lazzatlarga bo'lgan moyiliik ojizligini yenga oladigan zotdir; odamni komil inson va mukarram inson martabasiga ko'tarish uning ma'naviyatini yuksaltirish demakdir. Har bir jamiyat tayanadigan ma'naviy qadriyatlar qanchalik umum insoniy mazmunga ega bo'lsa, u shunchalik umr boqiydir. Odam ham shunday. Odam qanday xulq, axloqiy, madaniy sifatga ega bo'lsa, faoliyat tarzini namoyon etsa uning qadriyat ham shunchalik yuksak bo'ladi. "Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyatini bilan, balki birinchi navbatda, o'zining yuksak ma'naviyati bilan kuchlidir." (I.Karimov) Bu narsa inson shaxsiga nisbatan e'tibor har, talab ham kuchayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston ma'naviyat sharq falsafasi bilan uzviy bog'liq, zero falsafaning o'zi ma'naviyat I.A.Karimov alohida ta'kidlaganidek "asrlar mobaynida halqimizning yuksak ma'naviyati, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu falsafalarni sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib keldi.

Ma'naviyat sharqona falsafaga tayanib tarflanishi kerak. Shunda u O'zbekiston tanlagan yo'lining o'ziga xosligini ifodalaydi. Sharq falsafasi islom falsafasidan ozuqa oladi. Islom falsafasi murosasizlik falsafasi ekanligi bilan xarakterlanadi. U odatlarning to'qnashuvi, o'zaro kurash va qono'kilar, zo'rlik, kuch ishlatishni qoralaydi.

Odamni kamol toptirish uchun jamiyatni o'zgartirish marksizm mafkurasining tamal toshi edi. Bu tamoyil odamlarni ur yiqitlarga, o'zaro janjallarga etakladi. Islomiy falsafa esa jamiyatni o'zgartirish uchun odamning o'zini o'zgartirish kerak deb hisoblaydi. Jamiyat uning a'zolarining kamoloti natijasida va fuqarolarning barkamolligi darajasida takomillashadi deb o'rgatadi. SHarq falsafasida inson omili yuksak rutbada turadi, u o'z xalqining ham, o'zi yashayotgan jamiyat ma'naviyatining ham ijodkori va aynan shu sababli ham o'zining, ham zamondoshlarining ma'naviy sifatlari uchun javobgar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'naviy omillardan foydalanish vazifasi birinchi o'ringa chiqdi, savdotjorat, tadbirkorlikda halollik, mehr, insof adolat suvday kerak. Qur'oni Karimda "o'lchov va tarozini adolat bilan tortingiz" (6 sura, 15 oyat) deyiladi. Ismoil Buxoriy xadislarda molu dunyosi ko'p odam emas, balki nafsi to'q odam badavlatdir. Savdoda xiyla, aldamchilik qilmoq makruxdir, deb ta'kidlanadi.

Ko'rinib turibdiki ma'naviyati past odam tubanlik sari ketadi. Komillikning har bir davrga xos mezonlari bo'lganligi ham alohida ta'kidlash kerak. Nodonga nisbatan oqil, Loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, Tanbalga nisbatan serg'ayrat qo'rqqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vazifasini ham o'tagan

Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etilmoqda, uning bag'rida shakllanishi lozim bo'lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo'ladi Qanday yurtdoshimizni komil inson deb ataymiz. Eng avvalo ota bobolarimizning ibratli yo'li biz uchun namunadir Binobarin, komillik biz yot emas. Aytish mumkinki, O'zbekiston insoniy komillikning chuqur an'analariga ega bo'lgan o'lka Tadqiqotchliarning, qayd etish odamni yuksaklikka ko'taradi, unga katta obro` va shuhrat keltiradi. Biroq shaxs yaxshi hunar sohibi bo'lsa, odob va axloq bobida qusurga yo'l qo'ysa, u, shubhasiz, obro" topa olmaydi. Sim sohibi haqida ham shunday deyish mumkin. Zamondoshlarimizning chuqur ilmiy dunvoqarashga, zamonaviy bilim va muayyan kasb bo'lishi sohasida uyg'unlikka erishishi O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi ruhiga singdirib yuborilganining boisi ana shunda.

Inson kamolotida jismoniy go'zallik muhim ahamiyat etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'iish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan "sog'lom avlod dasturi»ning mazmuni shu bilan belgilanadi. Ayni vaqtda har bir inson o'zining salomatlik madaniyatini hara shakllantirmog'i va mukammallashtirmog'i lozim. «O'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilib borish madaniyatini oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi,

jismoniy tarbiya va sport vositasida yoshlikdan singdirib borish kerak (I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 77bet).

Komillikning yana bir jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Prezidentimizning «elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak», degan da'vati negizida ana shunday buyuk g'oya yotadi.

Inson kamolotida oilaning roli beqiyos katta ekanligi ma'lum. «O'zbeklarning aksariyati, — deb yozadi I. A. Karimov, — o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir (Yuqoridagi asar, 47bet).

Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, otaona, aka-uka va boshqalarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi. Tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy turlari va usullari ko'p, shulardan biri shajaraviy tarbiyadir, Bi tarbiya usuli malum bir ajdoddan kelib chiqqan avlodlarning qarindoshlik darajasini izchillik bilan sanab ko'rsatuvchi hujjatlarga asoslangan bo'lib, bunda bolalarga ajdodlarining kimligi shajaranomalar orqali eslatib boriladi. Bu tarbiya usuli orqaii ajdodlar bilan faxrlanish hissi shakllantiriladi, ularga munosib bo'lishga da'vat etiladi.

Islomda ham har bir musulmon o'zining yetti pushtim bilishi kerakligi ta'kidlanadi. Shajara tuzish ishini qayta davora ettirayotgan allomalardan biri faylasuf olim Omonulla Fayzullayev deyish mumkin. Tarixiy hujjatlarga asoslanib u kishi Shayx Zayniddin Bobo Toshkandiy ibn Shayx Shahobiddin

Abu Umar Suhravardiy shajarasini tuzdi. Omonulla Fayzullayev Shayx Zayniddin Boboning 45 avlodi ekanligi ma'lum boladi.

Ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi sog'lom fikr va oqslona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi yetuklik mezonini va shart-sharoitidir, Sunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Hakimdan baxtiyor kim? deb so'radilar, U «uch narsaning uch narsa bilan, ya'ni fikrni to'g'rilik bilan, so'zni rostlik bilan, fe'lni saxovat bilan bezagan kishi baxtiyor, deb javob beradi. Ulkan yunon faylasufi Suqrot o'z nasihatlaridan birida shunday deydi: Uch narsani barbod qilmaslik uchun uch narsani ehtiyot qiling bershdan ayrimaslik uchun tilingni saqla, namozdan ayrilmaslik uchun tahoratni saqla, yurakdan ayrilmaslik uchun g'azablanishdan ehtiyot bo'l.

Barkamollikning qirralari ko'p ekanligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mantiqiy fikrlashga o'rgatish hayot talabidir. Shunga ko'ra, unga har doim mantiqiy tafakkur yuritish tamoyillarini singdirib borish lozim.

Yoshlarni sog'lom fikrlashga, ayniqsa, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish zarur. Ba'zi bolalar yoshligidan boshlab «men» yoki «o'zim» deb fikr yuritadi. Sharqona tarbiyada o'zining gapini, fikrini o'tkazishga intilish yoki manmanlik hamma vaqt ham qo'llab quvvatlanmaydi. Ko'pincha, kattalar o'z fikrlarini o'zgarishga intiladilar, shunga qaramay mustaqil fikri bor odam odatda «fikrli odam» deyiladi.

Mustaqillik sharoitida to'g'ri ma'nodagi mustaqil fikrlash har bir yoshning qobiliyati, olamga faol munosabatini, malakasini tarkib toptirishda muhim ma'naviy omil ekanligi ta'kidlanadi. «Tafakkur» jurnali muharriri bilan qilgan suhbatida ta'kidlagan edi. «Talimning yangi jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr - qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har

lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha — o'z aqli. o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi. (I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. 21—22betlar).

Fikr tafakkurni keltirib chiqaradi va u o'ylash, muhokama yuritish ma'nolarini bildiradi. Mutafakkir so'zining o'zagi ham "fikr»dir. Lekin har qanday fikrlaydigan kishini mutafakkir deb bo'lmaydi. Sunday fazilatga ega bo'lgan kishi «har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri o'yi xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi. (I. A. Karimov, Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 6bet).

Barkamol inson tushunchasiga kiradigan muhim talablar sharq tafakkurida alohida tizimni tashkil qiladi. Ular shaxsning bosiqqligi, vazminligi, bag'ri kengligi, kamtarligi, odamxunligi, umuminsoniylik ruhining kuchliligi, serfarzandligi, keksa va yoshlarga mehr-shavqatliligiga kabilar bilan xarakterlanadi, Bular sirasiga kishining boshqa e'tiqoddagi yoki dindagi insonlarga nisbatan sabr-toqatliligi, hurmati, tabiatni sevish, butun jonli tabiatga muhabbat bilan qarash kabi fazilatlarini ham kiritish mumkin. Respublikamizda istiqlool tufayli shakllanayotgan va tobora kishilar e'tiqodiga aylanayotgan mustaqillik tafakkuri mazmunini tashkil etadigan bunday tushunchalar tobora hayotimizda keng o'rin egallamoqda.

Komil insonni tarkib toptirish tushunchasi yangi insonni tarbiyalash bilan uzviy bog'langan va uning asosiy talablaridan kelib chiqadi. Bunda yoshlarimizda milliy iftixor tuyg'usini tar kib toptirish va chuqurlashtirish ahamiyati favqulodda katta ahamiyat kasb etadi, Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniyati va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish hissiyotidir. Bu haqida keying mavzularni yoritishda batafsil to'xtab o'tamiz.

Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida komil inson tushunchasi va uni tarbiyalashning yo'l yo'riqlari, mohiyati, tamoyillari alohida takidlab o'tilgan. Uning xalqning o'tmishi va kelajagi, shon – shuhrati haqidagi har bir fikrida

komil inson g`oyasi, uni voyaga inson tarbiyasi mustaqillikka erishgan mamlakatimizda davlat siyosatining ustivor sohasi deb e`lon qilingan.

QADRIYATLARVA KOMIL INSON TARBIYASI

SHubhasiz, milliy qadriyatlarsiz millat kelajagini tasavvur etish qiyin. Yurtboshimizning xalq qadriyatlarini tiklash va milliy o`zlikni anglash, kamol toptirishga alohida e`tibor qaratayotganligi ham aslida bejiz emas. "Biz ma`naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o`zlikni anglashning o`shidan xalqning ma`naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma`naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma`naviyat manbai bo`lib xizmat qilgan. Shunday ekan, aytmog`imiz mumkinki xalq qadriyatlari kishilar, xususan yoshlarimizning o`z Vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Zero, ota - bobolarimizdan meros turkona qadriyatlar bamisoli yo`lni yorituvchi mash`ala, dillarga yorug`lik, ezgulik olib kiruvchi mo`jizadir. Ayni chog`da bu yuksak tuyg`ular farzandlarimiz ongi, shuurini charhlovchi, ularning kamoliga ziynat bag`ishlovchi betakror donishmandlikdir.

Sharqona qadriyatlarimizni oyoqqa turg`azish maqsadida "Ma`naviyat va ma`rifat" respublika markazi, "Oltin meros" kabi jamg`armalarning tashkil etilganligi ayni muddao bo`ldi. Jamiyatda yuksak ma`naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an`analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Shuni alohida e`tirof etishimiz kerakki, o`zbek xalqining milliy qadriyatlari uzoq tarixiy davrni qamrab oladi. Binobarin, milliy qadriyatlar ham tarixiy hususiyatlarga ega. Millat qancha qadimiy bo`lsa, uning qadriyatlari ham shu kabi ko`hnadir.

Qadriyatlar hech mubolag`asiz xalq tarixi, millat qiyofasidir. Qadriyatlar kimlarningdir shunchaki, xususiy o`ylarining mahsuli emas. Ayni paytda uning mavjudligi hagi ayrimlarning irodasiga bog`liq kechmaydi. Milliy qadriyatlar so`zsiz har bir millatning mavjudlik belgisidir.

Turkiy xalqlar tarixining yirik tadqiqotchisi V. V. Bartoʻlning "Eski turklarda milliy vijdonning shakllanganligiga shubha boʻlishi mumkin emas" degan fikrida turkiy qadriyat tuygʻularining koʻhna tarixi ham aks etadi.

Olimlarimizning zahmatli, betakror mehnatlari evaziga fanga maʼlum qilingan "Jayxun madaniyati", "Katta minor madaniyati", "Sopoltepa madaniyati" singari oʻnlab qadimiy madaniy qatlamlar butun dunyo maʼrifat ahlini hayratga solmoqda. Bu madaniyat topilmalari yurtimizni juda qadimiy davrlardan yuksak darajadagi milliy qadriyatlar diyori boʻlganligini isbotlaydi.

Asrlar davomida ajdodlarimizning aqlu zakovati ila yuzaga kelgan milliy qadriyatlar inson shaxsining har tomonlama kamol topishida etakchi omildir. Shuni yanada teran idrok qilmoq kerakki, davr kishisi, xususan yoshlarning ongini mazmunan boyitib borish beqiyos ahamiyatga ega.

Insoniyat hayotining uzoq asrlik tarixi yana shundan dalolat beradiki, odamlar ongida milliy qadriyatlar tushunchalarining mujassam boʻlishligini taʼminlamay turib, komil inson toʻgʻrisida gapirmoqlik mumkin emas. Prezidentimiz Islom Karimov oʻzining "Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli kitobida qayd qilganidek: "Xalqning madaniy qadriyatlari, maʼnaviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli maʼnaviyat manbai boʻlib xizmat qilgan". Afsuski, totalitar siyosat hukmronlik qilgan yillarda xalqimizning asrlar sinovidan oʻtgan, sayqal topgan milliy qadriyatlari xasdek oyoq osti qilindi. Buning oqibati barchaga maʼlum. Xalqning maʼnaviy-maʼrifiy komilligi nursizlana bordi. Mutelikka moyilligi kuchaydi. SHuning uchun ham mustamlakachilar xalqlarni oʻz ona tilidan, boy ziyobaxsh tarixan, milliy qadriyatlaridan mahrum etish yoʻlini tutdilar. Bu yoʻlda turli gʻoyalar, nazariyalar ishga solindi. Jumladan, "shaklan milliy, mazmuniy sostialistik" madaniyat bayrogʻi ostidagi harakatlar faqat milliylikni soʻndirishga xizmat qilishi kerak edi. Chor mustamlakachilari hukmronlik qilgan davrlarda, oʻlkada milliy urfodat va qadriyatlarni toptash borasida amalga oshirilgan razilliklarni arxiv hujjatlari isbotlab turibdi.

Arxiv hujjatlarini tadqiq etgan olimlarimizning (Mahmud Ahmedov) aniqlashlaricha, O`zbekiston markaziy arxivining Turkiston general gubernatori idora hujjatlari orasida ayni musulmonlar kiyib yuradigan turli xil bosh kiyimlar va ularni qaysi joyda kiyish, qaysi joylarda kiyimaslik haqida ikki marotaba 1893 yil 5 oktyabrda va 1897 yil 3 noyabrda farmon chiqarilgan.

Mazkur farmonlarda turli anjumanlarda musulmonlarga xos bosh kiyimlar "rus xalqlari xurmati uchun echib qo`yilishi, ya`ni bosh yalang o`tirish kerak" degan o`ta razilona talab ham qo`yilgan.

1901 yil 21 mayda Ichki ishlar vazirligi Diniy nazorat, departament va Bosh shtabning maslahati bilan "Musulmonlar bosh kiyimlarini qayerda kiyishi va kiyimasligi" haqida ochiqchasiga farmon chiqardi: Mana o`sha buyruqdan ko`chirma: "...hamma musulmon xalqi bosh kiyimini faqat o`zlari yashaydigan joylarda: uylaridami, ko`chalaridami, miliy kiyimlariga yarashadigan bosh kiyimlarini bemalol kiyib yuraversinlar". Chor mustamlakachilari kun sayin milliy qadriyatlarimizning unut bo`lishiga, o`z madaniyatini targ`ib etishga intilgan. Sho`ro saltanati davrida o`zimizdan chiqqan manqurtlarning milliylikni inkor qilishga qaratilgan qator "kashfiyotlarini" eslasak ko`ngil cho`kadi. "Nazariyotchilar" shu darajada yuz tuban ketdilarki, hatto choyxona devorlaridagi dutorni ham "eskilik sarqiti" deya asosladilar. Uzoq yillar davom etgan bunday noodilona siyosat xalqning milliy qadriyatlari ravnaqini og`ir oqibatlariga olib keldi. Milliy qadriyatlardan uzoqlashish oqibatida jamiyatda shunday avlod vakillari shakllandiki, ularning ko`pchiligida milliy vijdon, o`z vataniga bo`lgan muqaddas tuyg`ular xira tortib qoldi. Ayrimlarning dunyoqarashlarida Vatan istiqlolining takdiriga loqayd va befarqlik tushunchasi ustuvorlikni egalladi.

Ma`lumki, milliy g`oyasizlik, milliy g`aflat va milliy vijdon inqirozning tub o`zagida o`z ona tarixidan bexabarlik yotadi. Ayni paytda milliy o`zlikni anglashning omili ham aslida har bir kishining o`zini qaysi millatga (etnosga) mansubligini teran idrok etishi hisoblanadi. Ruhshunos olimlarimiz (Jo`raqul Burxonov) bunday idrok etish faqat madaniyatda, urfodatlar majmuasidangina

iborat emas, balki odam bolasining tabiati va ruhiyatiga ham bogliqlikda eksi etadi, deb asoslaydilar. Buyuk adib Abdulla Qodiriyning: "...o'zbek turmushining mayda chuydasigacha o'zbek bolasi biladi, o'zbek bo'lmagan har qanday mutaxassisning ham afsona ko'chasiga kirishi aniq"... degan shaxsiy fikri ham bejiz emas.

Milliy qadriyatlarni chuqur anglash, Vatanga chin muhabbat tuyg'usi mubolag'asiz Vatan tarixini o'rganish va o'rgatishga ko'p jihatdan bog'liq. SHu mayda xristian ilohiyotchisi A. Avgustin: "G'aflatda yotgan xalqni uygotish uchun avvalo uning tarixini uyg'ot",— deganda haq edi. XII asr allomasi SHahobiddin an Nasafiy ona tarixning inson xayotidagi o'rnini yuksak baholab shunday nazm etadi:

Kimki tutmas qalbida tarixni, U inson ham emas, olim ham emas. Biroq kimki o'qisa o'tmishni, ko'p boyitar o'z turmushini, zero, millat tarixi, milliy o'zlikni anglash inson qalbida Vatanga muhabbat tuygusining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Prezident I. Karimov har jihatdan ma'naviyatli — ma'rifatli insonni kamol toptirishda Vatan tarixining o'rniga alohida e'tibor berib: "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutmog'imiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi", deb takidlaydi. Binobarin, o'tmish faqat xushkayfiyat yoki afsus-nadomatlar bilan emas, balkim sabog'i bilan qadrlidir. Zero, milliy o'zlikni anglash va milliy g'urur, vatanga muhabbat tuyg'ularini milliy qadriyatlarsiz tasavvur etish qiyin. Shuningdek, milliy qadriyatlar bilan Vatan tuyg'usi o'zaro bog'liqdir. Shuni alohida e'tirof qilmog'imiz lozimki, milliy qadriyatlarga munosabat tuyg'usi ehtiros, kayfiyat, shuningdek ruhiy holat bilan bog'liq emas. Aksincha, xalqning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti darajasiga bog'liq. Demak, milliy qadriyatlarni chuqur anglash vatan tuygusini mustahkamlaydi. Ayni paytda yoshlar vatan haqida qancha ko'p bilsa, milliy qadriyatlarni qanchalik chuqur anglab, e'zozlasa uning milliy ongi ham shunchalik yuksak bo'ladi.

Binobarin, tarix o`zbek xalqining hozirgi avlodi zimmasiga g`oyat mushkul, ammo shu qadar muqaddas yumushni yuklaydi. Bu milliy qadriyatlarni ravnaq toptirish yoshlarni Vatanni sevmok, uning shuhratiga shuhrat qo`shmoq ruhida tarbiyalashdir. Ha, inson uchun bu yorug` olamda Vatandan aziz, undanda mo`tabar narsa yo`q. Insoniyatning ulug` mutafakkirlari-yu, tengsiz daholari hamisha Vatanni ulug`lab ardoqlab beqiyos o`lmas tuyg`ularini avlodlarga meros qoldirganlar. Hazrati Alisher Navoiy bir baytida bunday yozadi:

Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranji g`urbat havas aylama.

Ha, odam er kurrasining o`zi istagan joyida yashashi mumkin. Lekin baribir Vatan bitta bo`ladi. Chinakam inson uchun Vatan shunchaki, boshpana, ish joyi emas, borinki, boylik orttiradigan manzil yoyinki shunchaki jug`rofiy tushuncha emas. Vatan — ajdodlar ruhi, iymoni, xullas, insonni inson qilib turgan muqaddas tuyg`udir. Uning ulug`ligi ham shunda.

Biz yosh avlodni ana shunday yuksak insoniy g`oyalar, tushunchalar asosida tarbiyalamog`imiz lozim. Binobarin, faqat shunday vorislargina kelajagi buyuk mamalakatimizni haqiqiy fidoyilari bo`lishlikka qodirdirlar. Zero, o`sib kelayotgan har bir yosh avlod Vatan bittaligini chin yurakdan his etsinlar.

Vatan yagonadir. Vatanning kattakichigi bo`lmaydi. SHu o`rinda mamlakatimiz Prezidenti "O`zbekiston kelajagi buyuk davlat" nomli asarida shunday yozadi: "bugun Vatanning har bir farzandi o`zini ota yurtining ajralmas bo`lagi deb his etyapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo`lamiz. Vatan, Vatandoshlik tuyg`usi eski mafkuraviy qobiqlardan xalos bo`lib, o`zining asl qiyofasini topadi".

Chindanda, tavallud topgan.erga e`tiqod qo`ymoq, o`zbeklarga ota meros qutlug` fazilat. Zero, jahon xalqlarini ma`naviy va ma`rifiy yuksalishiga katta hissa qo`shayotgan buyuk bobokalonlarimiz o`z ismlarini kindik qoni tushgan muqaddas joy nomi bilan bog`lab aytishganlari bejiz emas. Buxoriy, Xorazmiy,

Marg`iloniy, Namangoniy, Termiziy... singari nomlar butun dunyo ma`rifat ahlining faxriga aylanganligi biz uchun ham iftixorlidir.

So`nggi yillarda mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash bo`yicha Milliy dastur" va "Ta`lim to`g`risida"gi Qonunning qabul qilinishi ta`lim va tarbiya ishlarida yanada dolzarb vazifalarni belgilab beradi. Umuman, milliylik umuminsoniylikning bir qismi, aslida ham umumbashariylik — milliy qadriyatlar negizida tarkib topadi. Demak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to`g`ri qo`shib olib borish Vatanparvarlik tarbiyasining muhim shartidir.

Milliy, umumbashariy qadriyatlar yoshlar tarbiyasining muhim omilidir. Milliy qadriyatlar ulug` xalqimizning cheksiz donishmandligi, qaynar buloqdek kishi qalbiga malhamdir. U ma`naviy bilimlar javohiri, qadriyatlarimizni qanchalik chuqur bilsak ta`lim-tarbiya sohasida ulardan shu qadar samarali foydalana olishimiz mumkin.

Milliy qadriyatlar kishilar o`rtasidagi o`zaro ma`naviy-ma`rifiy munosabatlarni boshqaradi, g`oyaviy jipsligini mustahkamlaydi. Ta`lim-tarbiya jarayonida bu kuchni hech bir omil bilan almashtirish mumkin emas. Bas, shunday ekan, milliy qadriyatlarga, e`tiborni kuchaytirmoq, undan yuksak aql idrok, Vatan ravnaqi yo`lida foydalanish ta`lim-tarbiya muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. To`g`ri, er yuzidagi har bir millat o`ziga xos milliy qadriyatlar yig`indisiga ega. O`zga millatlar milliy qadriyatlarining e`zozlash muayyan millatga nisbatan ehtirom belgisidir. Ta`lim-tarbiya jarayonida bularni biz aslo unutmasligimiz lozim. Ayni paytda turli xalqlarning milliy qadriyatlari birbirini doimo boyitib, to`ldirib keladi. Ularni o`zaro ayri holatda tasavvur qilish qiyin. Masalan, o`zbek, tojik, turkman, qirg`iz, qozoq xalqlarining tarixiy rivojlanishida o`zaro uyg`un jihatlar ko`p. Shu o`rinda aytmogimiz kerakki, milliy qadriyatlar millat totuvligini ham o`ziga xos omilidir.

Umuman, axloq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan kishi. Vatan tuyg`usidan ham bebahra bo`lmaydi. Ayni chog`da bunday inson so`zsiz umuminsoniy qadriyatlarni e`zozlay oladi. Bas, shunday ekan, yoshlarni milliy

qadriyatlarga beqiyos hurmat, Vatanga fidoyilikni tarbiyalamoq ta`lim-tarbiya sohasidagi eng muhim vazifalardan biridir.

Milliy qadriyatlar asrlar qa`ridan kelayotgan hayot sabog`i, beqiyos ta`lim-tarbiya vositasi, Vatan tuyg`usining qaynar bulog`idir.

MA`NAVIY BARKAMOL INSON TARBIYASI

Odamzod paydo bo`libdiki, bir narsaga javob izlaydi: biz kimmiz, men kimman, atrofimdagilar kim? Biz nimalarni bilamizu, nimalarni bilmaymiz? Bilgan narsamiz bizga nima beryapti, nimaga muhtojmiz? Ehtiyojimiz nima va uni qanday qondirishimiz mumkin?

Bu savollarga ming yillar davomida javob qidirildi, qidirilmoqda. Insonni baxtli qilishning, uning ogirini engil qilishning, odamzodni urushu qirg`in barotlardan, turli milliy, irqiy, siyosiy kelishmovchiliklardan asrab qolishning qanchadanqancha yo`llari, konstepstiyalari, vositalari ishlab chiqildi, diniy, dunyoviy ta`limotlar yaratildi, dissertastiyalar ximoya qilindi.

Biroq shak-shubhasiz, insoniyat taraqqiyotiga o`zining salmoqli hissasini qo`shgan o`sha yangiliklaru ta`limotlarga qaramasdan, ilm-fan, madaniyat rivojlangan uchinchi ming yillikning boshida ham urushlardan jabr ko`rayotgan, qiyinchiliklarga duchor bo`layotgan baxtsiz insonlar hali ham bor. Boz ustiga bunday illatlar yangi shakl va mazmunda yana paydo bo`lishi davom etmoqda.

Eng achinarlisi shundaki, ilm-fan, madaniy rivojlanish taraqqiyoti kuchaygan sari insonni tarbiyalash, uning qalbini davolash zaruriyati shunchalar dolzarb bo`lib bormoqsta. Voqealar ummonida o`zini «yo`qotib qo`ymaslik» zarurati tobora kuchliroq sezilmoqda. Ana shunday sharoitda faqatgina o`z fikri, tafakkuri, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg`unligi asosida rivojlantirishga harakat qilgan inson, xalqgina o`zini asrab qolishi mumkin. «Chunki hozirgi davrda, — deydi Yurtboshimiz, — xalqaro maydonda turli siyosiy man faatlar to`qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o`z fikri, o`z hayotiy pozistiyasiga ega bo`lgan xalq va jamiyat engilmas kuchga aylanib, kelajagini o`z qo`li va aql-zakovati bilan qurishga qodir bo`ladi»

Yuqoridagi iqtibosdan har bir inson o`zini-o`zi boshqarishi, o`zining qat`iy fikriga ega bo`lishi lozimligi anglanadi. Haqiqatan ham shunday: insonni qalb va aql boshqaradi. Qalbi xastalangan inson uchun jamiyat manfaatlari, milliy ehtiyojlarning hech bir qizig`i yo`q. SHuning uchun ham SHarqda doimo

inson qalbining sofliigi muqaddas hisoblangan. Mutafakkirlarimiz jismoniy o`limdan emas, qalb yarasidan, axloqiy qashshoqlanishdan qo`rqishgan.

Qalb, yurak, din va ilohiyat sof tushunchalar hisoblanadi. Qur`oni karimda «qalb» so`zi 133 marta uchraydi. Tustariy, Balxiy, Nuriy, Termiziy, G`azzoliy kabi allomalar fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo`lib, shu tufayli inson hatto farishtalardan ham yuqori turadi. Qalb narsalarning tub mohiyatini ko`ra oladi, u inson xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko`zgu bo`lib, savob amallar uni nurga to`ldiradi, yomon amallar esa, aksincha, xiralashtiradi.

Demak, insonning tom ma`nodagi mavjudligi uning qalbida aks etadi. Qalbi nur, ezgulik, yaxshilik, go`zallik bilan to`lgan har qanday insonni mukammallikka intilgan, o`zini yaxshi insonga aylantirishga harakat qilayotgan shaxs sifatida tan olish mumkin.

Shu bilan birga go`zal inson, yaxshi shaxs tarbiyasi faqat uning qalbi bilangina belgilanmaydi. Qalb bilan bab-baravar aqlning o`rni ham juda katta. Aql eng ulug` ne`matlardan biri sanaladi va u insonni doimo anglash, fikrlash, mushohada etish, tafakkur qilishga undaydi.

Masalaning eng muhim jihati shundaki, qalb, yurak, dil, akl bilan uyg`unlashgandagina u tom ma`noda insonga, insoniyatga xizmat qilishi mumkin, zero Arastu ta`kidlagani kabi «aql dil go`zalligi bilan qo`shilsa fazilatga aylanadi, aks holda aql fazilat emas».

Insonda qalb va aql uyg`unligiga erishishning barkamol avlod tarbiyasidagi o`rni masalasiga Sharqda ayniqsa katta ahamiyat berilgan. Buyuk mutafakkir Abu Homid Razzoliy o`zining «Kimyoi saodat» asarida inson tanasini shaharga o`xshatadi. Uning aytishicha qalb, dil — bu shaharning podshohi. Aql bu shahar podshohining vaziri. «Bunga o`xshash vaqtiki podshoh Dil vazir — Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g`azabni vazir Aqlning zerdasti va farmonida qilsa, badan mamlakati aning nizomida bo`lg`usidir. Va saodat yo`lini topib, Haq Taoloning ma`rifatini hosil qilg`usidir va agar Dil vazir Aqlni shahvat va g`azab iligida asir qilsa, badan mamlakati vayron bo`lib, podshoh Dil ham asir bo`lib, badbaxt va halok bo`lg`usidir»

Nazarimizda, qo'yilgan masalaga bundan ortiq izoh yo`q. Qalb bilan aql uyg'unlashgan joyda rivojlanish, yaxshilik, ezgulik, go`zalikka intilish bor. Qalb, dil va aql o`rtasidagi kelishmovchilik esa, barcha ziddiyatlar, nohaqliklar, adolatsizliklarning manbaidir. Shubhasiz, ushbu holatda qalb, dil, yurakning o`rni, ahamiyati kattadir.

Buyuk allomalarimiz qayd etganlari kabi insonni, pirovard natijada jamiyatni ma`rifat bulog`idan sug`orishning yo`li shaxsni ma`naviyat, ma`rifatga oshufta qilishdadir. Muammoga boshqacharoq munosabatda bo`ladigan bo`lsak, insonni va jamiyatni turli baloqazolardan asrashning yagona yo`li qalbni davolash, uni sog`lomlashtirishdir.

Bu yo`lda mamlakatimizda mustaqillik yillarida misli ko`rilmagan katta hajmdagi ishlar bajarildi. Ma`naviyat, ma`rifat davlat siyosatining ustuvor yo`nalishiga aylandi. Muximi, ushbu haqiqatning rasman e`lon qilinganida emas, balki bu narsaning fuqarolarimiz tomonidan e`tirof etib, tan olinganidadir. Madaniyatning maqsadi, ijtimoiy funksiyalari o`zgardi. Agar avval madaniyat davlatning, hukmron siyosiy mafkuraning imperiyachilik maqsadlarini amalga oshirish vositasi sanalgan bo`lsa, endi u insonning mukammalligini ta`minlovchi, millatni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, yagona milliy manfaatga xizmat qiluvchi hodisaga aylandi.

Natijada ma`naviy-ma`rifiy sohada fuqarolarimiz orzu qilgan kunlarga etdik. Milliy-madaniy, tarixiy merosimizni o`zimizga qaytarish imkoniga ega bo`ldik. Millatning mavjudligi uning madaniyatida aks etishi to`g`risidagi haqiqat tom ma`noda qaror toda boshladi. Milliy madaniyatimizning tiklana boshlashi bizning jahon maydonidagi o`rnimizni belgilashga ko`mak bera boshladi. Ushbu ijobiy jarayonlar silsilasida Yurtboshimizning «Bolalar musiqa va san`at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo`yicha 2009—2014 yillarga mo`ljallangan davlat dasturini tayyorlash choratadbirlari to`g`risida»gi farmoyishini alohida ta`kidlash lozim. Ta`bir joiz bo`lsa aytish kerakki, bu hujjat jamiyatni yanada ma`rifatparvarlashtirish, insoniy fazilatlariga ustuvor tavsif berish, inson qalbidan

ezgulik, yaxshilik, adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jiddiy qadamdir.

Shu bilan birga dunyo tobora globallashib borayotgan, barcha sohalarda integrastiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda jamiyatimizning ayrim fuqarolarida, ayniqsa, yoshlar ongida kuchli tafakkuriy o`zgarishlar sodir etish o`ta dolzarb bo`lib qolmoqda. Ayrim yoshlarimizda egoizm, xudbinlik, jamiyat manfaatlariga bepisandlik kabi illatlarning mavjudligida g`arbning ta`siri kuchayib borayotganligini ham esdan chiqarmaslik muhim, deb o`ylaymiz.

Bunday murakkab sharoitda yoshlar o`rtasida olib boriladigan ma`naviy-ma`rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo`q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o`z ma`naviy qiyofasini boyitishga mkon beradigan sog`lom ehtiyojni shakllantirish o`ta zarurdir.

Sog`lom ma`naviy ehtiyoj inson qalbini nurga, yaxshilik, ezgulikka to`ldiruvchi, uni yomon illatlardan himoya qiluvchi vosita hisoblanadi. Sog`lom ehtiyojni shakllantirish uchun esa, mavjud holatni taxlil qilish ko`nikmasiga ega bo`lishimiz lozim. Bunday holatni aniklash uchun esa, bizning nazarimizda, quyidagilarga e`tibor berish lozim.

Birinchidan, bugungi yoshlarimizning shaxs sifatidagi maqomida qaysi sifatlar ustuvor ahamiyatga ega bo`lmoqda: moddiy boylikmi, amalga o`tirishmi, bilim olishmi, umumiy madaniy saviyani oshirishmi?

Ikkinchidan, yaratilgan ma`naviy ne`matlar — badiiy asarlar, kinoteatr asarlari, ommaviy axborot vositalari nashrlari yoshlarimizning qiziqishlarini o`rgangan holda taklif etilyaptimi?

Uchinchidan, davlat, hokimiyatning turli pog`onalarida, ayniqsa, quyi pog`onalarida yoshlarimizning bo`sh vaqtlarini samarali tashkkl etish, ularning ma`naviy qiyofasini shakllantirish yo`lidagi faoliyat hozirgi kun talabiga javob bera oladimi?

To`rtinchidan, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tabiatidan kelib chiqqan holda jamiyatimiz fuqarolari madaniy saviyasini oshirishga ko`mak berish mumkin bo`lgan homiylik harakatidan qoniqish hosil qilish mumkinmi?

Jamiyat ma`naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog`lom ma`naviy ehtiyojini shakllantirishda, shakl shubhasiz, yuqoridagi savollarga berilgan javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma`naviy ehtiyojini shakllantirish o`ta murakkab va ma`lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o`zini o`zi rivojlantirishga moyillik bo`lishi lozim. Bu esa, ko`proq oila, mahalla, o`qiyotgan yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo`lsak, jamiyatdagi o`rnak va ibrat masalasiga bog`liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihati yon atrofimizda, dunyoning boshqa mamlakatlarida yoshlarga taqdim etilayotgan turli ma`naviy «ne`matlar» saviyasiga bog`liq. Ma`lumki, «sadizm» iborasi fransuz yozuvchisi Markiz de Sad (1740—1814 yillar) nomi bilan bog`liq. Sadizmning ma`no mohiyati jinoiy buzqlik, yostiq stoshiga jismoniy azob etkazilgan taqdiridagina to`la-to`kis huzur qilish, haddan tashqari shafqatsizlik, boshqalarning azoblanishidan huzurlanish demak. Taniqli adib M. Shohanov ta`kidlaganidek, de Sad asarlarida tasvirlangan ma`naviy qashshoqlik, ashaddiy shafqatsizlik manzaralari faqat la`natlashga loyiq. O`z onasini zo`rlagan murtad, qizini o`ziga o`ynash tutib, so`ng uning murdasini ovloq joyga eltib tashlaguncha yalabyulqab borgan vosvos ota haqidagi parchalarni o`qishning o`zi ham azob. Shunday bo`lsada, de Sad kitoblarini o`qishga mushtoq bo`lgan kitobxonlar juda ko`p.

Insonning go`zal fazilatlarini, uning muqaddasligini ifoda etuvchi asarlar bilan birga uni kamsituvchi, erga uruvchi ayrim «asarlar»ning yuzaga kelishi, shubhasiz, fuqaro ma`naviy ehtiyojini bulg`arlashtiradi. Bosqinchilik, ur yiqit, zo`ravonlikni muntazam ravishda «tomosha qiluvchi», «o`qiydigan» kishidan nimani ham kutish mumkin? Sog`lom ma`naviyat yomon odamni yaxshi odamga, yaxshi odamni esa go`zal xulqli insonga aylanishini ifoda etuvchi ma`naviy boyliklar asosidagina shakllanishi mumkin.

Muammoning uchinchi jihati ham bor. Shu narsa ma`lumki, fuqaroda, pirovard natijada, millatda o`zga shaxs va millatning ma`naviy «boyliklari»ni o`zlashtirishga, ularni «kul`t» darajasiga ko`tarishga moyillik holatlari mavjud.

Buning uchun, avvalo, o`sha shaxs yoki millat madaniyati boshqalar madaniy taraqqiyotidan sustroq bo`ladi. Bo`lak tomondan esa shaxs va jamiyatda o`zini-o`zi rivojlantirishga bo`lgan harakat kam bo`ladi.

Ammo, o`zbek xalqi o`z milliy-madaniy taraqqiyoti bilan jahonda aloxida hurmat va e`zozga ega bo`lgan xalq hisoblanadi. Bu — e`tirof etilgan aksioma. Ana shu milliy-madaniy boyliklarni xalqimiz ongi shuriga singdirish, ularning qalbiga jo etish asosida millat madaniy-ma`naviy qiyofasini shakllantirish mumkin.

Yurtboshimiz ta`kidlagani kabi, olib borayotgan targ`ibot-tashviqot, ma`naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo`naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko`rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi va boshqa jihatlari e`tiborga olinib o`tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o`sha shaxsning sog`lom ma`naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma`naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida tarbiya topishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, barkamol inson tarbiyasi, ayniqsa yoshlar qalbida yaxshilik, ezgulik, millat va Vatanga mehr qo`yish sifatlarini shakllantirish o`zo`zidan bo`lmaydi. Bemaqsad, samarasiz yuzlab tadbirlardan bitta ma`nili suhbat yoki muloqotning ko`proq nafi tegishi mumkin. Buni barchamiz bilamiz. Biroq, tadbirlarimizning besamarligiga yana bir boshqa sabab borgan o`xshaydi.

Gap fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning ma`naviy qiyofasini shakllantirishda, ular qalbida yaxshilikka oshnolik sifatlarini uyg`otishda mavjud vaziyatni yaxshi anglab eta olmayotganligimiz haqida ketyapti. TTTu o`rinda mamlakatimiz yoshlarining ma`naviy-mafkuraviy xaritasini yaratish maqsadga muvofiq bo`lar edi, deb o`ylaymiz. Ushbu shartli «xarita»da yoshlarimizning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari o`z ifodasini topgan bo`lishi muhimdir. Masalan, qaysi yoshda Alisher Navoiyni qanday talqin qilish haqida o`ylamas ekanmiz va uni keksayu yoshga bir xil tarzda «targ`ibtashviq» etarkanmiz, unday asar bir toifa odamga bir xil, boshqalariga esa tamomila o`zgacha ta`sir etishi mumkin.

YOshlar qalbi shakllanayotgan qalb hisoblanadi. Shakllanish jarayoni to`g`ri belgilanmas ekan, bunday vaziyatda insonning virtual dunyoga kirib qolish ehtimoli ko`p bo`ladi. Virtual dunyoda inson qalbida hali to`la anglab etilmagan qandaydir g`ayriodatiy o`zgarishlar ro`y beradi, undaylarda turli tubanliklarga tushish erkinlik sifatida tahlil etiladi. YAna shu narsa ma`lumki, virtual dunyoda inson ma`naviy javobgarlikni xis etmaydi. Hattoki, mutaxassislarning ta`kidlashicha, virtual dunyo, uning zamonaviy axborot texnologiyalari bag`rida yarati lishi atom bombasining kashf etilishidan ham xavfli. Hozirgi sharoitda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga tushib qolishi, ularning real dunyodan ajralib qolayotganliklarining ikki sababi bor, deb o`ylaymiz: birinchidan, undaylar o`zining mustaqil ma`naviy qiyofasiga ega emas. Natijada «chetda»gi narsalar uni o`ziga tortadi, astasekin real dunyodan oyog`i uzilganini sezmay qoladi. Ikkinchidan, bunday toifadagi yoshlarda o`zini o`zi rivojlantirishga ehtiyoj yo`q, shuningdek, bu narsa ularni moslashuvchanlik, ergashuvchanlik kayfiyatiga tushirib qo`yadi.

YOshlarimizni virtual dunyoga tushib qolishdan asrash, ularning qalbini ezgulik, yaxshilik urug`lari bilan to`ldirish uchun, eng avvalo, bundaylarni margenallik holatidan chiqarish lozim. Margenallik — ayrim shaxs yoki guruhning jamiyatda muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa, qatlamga mansub bo`lmasdan «chekkada», «oraliqda» qolishidir.

Boshqacha so`z bilan aytganda, margenallik holatida u yoki bu shaxs «arosatda» qolishi mumkin. Jamiyat, oila, mahalla ta`siridan «chiqish esa margenallik holatiga tushgan shaxsda beparvolik, uquvsizlik, ijtimoiy hayotdan begonalashuvni yuzaga keltiradi. Bunday holatga tushgan shaxsning asosiy «xususiyatlari» jamiyat muammolariga e`tiborsizlik, sustlik, tevarakatrofdagi voqea hodisalarga daxldorlik hissining susayishi, beqarorlikda ko`rinadi. Bundaylarning qalbi shikastlangan bo`ladi. Bunday shaxsning boshqalar ta`siriga tushish imkoniyatlari doimo yuqori bo`ladi. Ularning qalbini egallashda katta qiyinchilik sezilmaydi. Bu — jamiyat va millat .hchun o`ta xavfli. SHuning uchun ham bizning ma`naviy marifiy faoliyatimiz ayrim yoshlarimizda

mavjud bo`lgan margenallik holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim. Barkamol inson tarbiyasi alohida olingan, aniq bir shaxs tarbiyasi tufayli sodir bo`ladi. Tarbiyada aniqlik zarur. Agar biz tarbiyalanuvchining qalbini poklay olsak, unga insonni sevish, hurmat qilish, e`zozlash urug`larini sepa olsak, shubhasiz, biz jamiyatning sog`lom ma`naviy qiyofasini yaratgan bo`lamiz, zero SHarqda doimo moddiy olamdan rux olamiga ko`tarilish, qalbni tozalash insonning komillik sari tashlangan qadami sifatida baholangan.

YOSHLAR MA`NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY XOTIRANING O`RNI

Yoshlar ma`naviyati dabdurustdan shakllanadigan hodisa emas. Uning o`z evolyustion yo`li mavjud. Yoshlarimiz ma`naviy dunyoqarashini shakllantirishda ma`naviy mero madaniy boyliklar, tarixiy va madaniy yodgorliklar muhim o`rin egallaydi. Qolaversa, diniy va dunyoviy olimlar, millatning xarakteri, uning salohiyati — bula) ning bari yoshlarimiz ma`naviy dunyoqarashida muxim, hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

TTTu bilan birga yoshlar ma`naviy qiyofasini shaklla: tirishda o`ta muhim ahamiyatli yana bir jihat mavjudk uningsiz hech qanday ma`naviyat, madaniyat to`g`risida g pirish mumkin emas. Bu — xalq tarixi, tarixiy xotiradir.

Tarixiy xotira — milliy gurur va milliy iftixor xissining zaminlaridan biri.

SHuningdek, tarixiy xotira — ajdodlar yaratgan moddiy va ma`naviy boyliklarni kishilar ongi va kund lik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo`lishi, eslab qadrlanishi hamdir.

inson — irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir»

SHu narsani g`urur bilan ta`kidlash lozimki, o`zbek milliy tarixi aslida madaniyat tarixidir. Tarix — xalq ma`naviyatining asosi ekanligini qayd etgan YUrtboshimiz I.A. Karimov shunday deydi: «Ma`naviyatini tiklashi, tug`ilib o`sgan yurtida o`zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko`tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak».

YUqorida bildirilgan fikrlardan uchta muxim xulosa kelib chiqadi: birinchidan, o`zbek milliy tarixi, eng avvalo, madaniyat, rivojlanish, taraqqiyot tarixvdir. Ikkinchidan, milliy ma`naviyat o`zo`zidan rivoj topmaydi va uning asosini tarix tashkil etadi. Uchinchidan, tarixiy xotirani tiklamasdan tom ma`nodagi rivojlanishga erishish qiyin.

Ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz fuqarolari, ayniqsa, yoshlarining tarixiy xotirani tiklash borasida olib borayotgan ishlari har qanday tahsinga loyiq. Uch ming yillik buyuk milliy davlatchilik tariximiz yoshlarimiz uchun iftixor va vatanparvarlik omilidir. Ijtimoiy-tarixiy

rivojlanishimizning har bir bosqichi xalqimizning mustaqillik, erk, ozodlik uchun yaratish va taraqqiyot sari harakat davri ekanligini ham anglab etdik.

Eng muhimi, yoshlarimiz haqli ravishda o`z tarixi, otabobolar tomonidan yaratilgan moddiy-ma`naviy boyliklardan faxrlanish huquqiga ega. Uzoq davrlar davom etgan mustamlakachiliklarga qaramasdan ilm-ma`rifatli xalqimiz yaratish yo`lidan aslo chekinmadi. «Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo`lyozma, ularda mujassamlangan tarix, adabiyot, san`at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me`mor chilik, dehqonchilikka oid o`n minglab asarlar bizning beqiyos ma`naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo`lgan xalq dunyoda kam topiladi» deb ta`kidlaydi yurtboshimiz I.A. Karimov. Qulay geosiyosiy makonda joylashgan O`zbekiston hududida ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi ko`p omillarga bog`liq bo`lib, eng asosiysi bu yurtda xalq ilmiyijodiy faoliyatining an`anaviy mavjudligi edi. Bundan tashqari, yurtimiz hududi qadimqadimdan madaniyatlar, stivilizastiyalar uyg`unlashgan, «Buyuk ipak yo`li» kesishgan, G`arb va SHarq aloqalarining muhim bo`g`ini edi. Bularning bari mamlakatimizda azaldan ilm-fan, madaniyat, san`atning, kishilik faoliyatining barcha jabhalari rivojlanganligini belgilab bergan edi.

«Bu ko`hna tuproqda, — deydi Yurtboshimiz, — milodgacha bo`lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali hanuz o`zining ko`rku tarovatini saqlab kelayotgan osori atiqalarimiz qadimqadimdan o`lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me`morlik va shaharsozlik san`ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo`lgan to`rt mingdan ziyod moddiy-ma`naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro`yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi».

Ana shunday buyuk merosni o`rganish orqaligina tom ma`noda yoshlar ma`naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Bunday merosni esa faqat va faqat tarix orqali o`zlashtirish mumkin. Chunki bunday merosni o`rganmay turib,

kishilik jamiyatida ildamlab borish mumkin. Tarix hamma narsaga chidaydi. Ammo o`zini soxtalashtirishga aslo chiday olmaydi. Zero, tarixni o`rganish bizning tafakkurimizni charxlaydi, o`tmish tarixidan faxrlanish, yo`l qo`yilgan xatolardan kelajakda xoli bo`lish imkonini beradi. «Tarixni o`rganish — deydi XVIII asrning buyuk nemis ma`rifatparvari Fridrix SHiller, — aqlimizni nurlantiradi, qalbimizni olijanob fidoyilik bilan alangalantiradi. U ruhimizni axloqiy masalalarga pastkashlik va bachkanalik bilan yondoshishdan saqlaydi» Darhaqiqat, tarixni, uning porloq, yorqin kunlari bilan birga zulmat va mustamlakachilik, ayriliq va yo`qotishlardan iborat davrlarini ham bilishimiz bizni turli baloqazolardan asraydi, sergaklikka undaydi. Erishilgan yutuqlarni, porloq kunlarni eslash va faqat ulardan g`ururlanishning o`zi etarli emas. Ayni paytda tariximizning qorong`i kunlarini ham esdan chiqarmaslik tarixiy xotira uchun o`ta zarurdir.

SHu o`rinda hozirgacha nihoyatda kam o`rganilgan, yoshlarimiz e`tiboridan ba`zan chetda qolayotgan bir holat — O`zbekiston hududvda yaratilgan moddiy va madaniy boyliklarni mustamlakachilar tomonidan tashib ketilishi bilan bog`liq masalaga diqqat qaratishni lozim deb topdik. Gap shundaki, hozirgi yoshlarimizning tarixiy xotirasini shakllantirish uchun otabobolar, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, ammo bosqinchilar tomonidan tashib ketilgan milliy merosimiz to`g`risida but xulosalar berish lozim.

Umuman, uzoq ming yilliklardan iborat o`zbek xalqi tarixi, 3 ming yillik buyuk milliy davlatchilik tariximiz davomida ajdodlarimiz ne-ne azobu uqubatlarni, yo`qotishlarni ko`rmadi. Eron axmoniylari, grekmakedonlar, arablar, mo`g`ul istilolari bunga misol.

Ammo milliy-madaniy boyliklarimizni tashib ketishda eng so`nggi mustamlakachilar — chor Rossiyasi va kommunistik hukmronlik davri alohida o`ringa ega. YOshlarimizning ma`naviy qiyofasini shakllantirishda, pirovard natijada ular tarixiy xotirasini tiklashda o`sha davr, milliy boyliklarni tashib ketish siyosati mohiyatini to`g`ri anglash o`ta muhimdir. Mustabid sovet davrida

ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan narsalar, voqea hodisalar sababi endi ma'lum bo'lmoqsta.

SHu o'rinda quyidagi qiziq, ammo achinarli misolni keltirishni lozim deb topdik: XIX asrning ikkinchi yarmida Xivaga qarshi yurishda general Kaufmanga hamrohlik qilgan A.L. Kun Turkiston madaniyati, san'atini o'rganish, to'plash va saqlab qolish bahonasida yurtimiz madaniy boyliklarini tashib ketishni yo'lga soladi. SHarq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob, shulardan 129 tasi 140 jildan iborat tarixiy asarlar, 20 muallifning 30 jidstlik asarlari, huquqshunoslik va ilohiyot masalalari bo'yicha 50 jildan iborat 40 asar, 18 nusxa Qur'on va 50 ta darslikni to'plagan va o'zini sharqshunos olim deb tanishtirgan A.L. Kun ularni 1873 yilda Imperator xalq kutubxonasiga topshirgan.

A.L. Kun va uning guruhi Xivadan tanga zarb qilishga mo'ljallangan 200 nusxa shtampni, muhrlar bog'lamini, xon taxtini, 172 nusxa Jo'chi tangalarini, Qo'ng'iroq sulolasidan bo'lgan Xiva xonlarining 3 nusxa tangasi va qator etnografik ashyolarni, xususan, ayollar va bolalar kiyimboshlari, ko'shtab tilla va kumush bezaklarni olib ketgan.

Rossiyaga olib ketilgan asarlar orasida Nizomiy qo'lyozmalari, «Tarixi Vasifiy», «Iskandarnoma», Mavlaviy Rumiyning «Masnaviy»si, Navoiyning «Xamsa»si, Rabg'uziyning «Kdssa ulanbiyo», «Tafsiri Qur'on», «Ravzat us Safo», «Dostoni Qosim va Go'ro'g'li», Abdulg'ozining «SHajarayi turk» hamda arab, fors va o'zbek tillaridagi boshqa asarlar bor edi.

Tarixiy xotirani tiklash jarayoni tizimiy ravishda tashkil etilishi lozim. Buning uchun, eng avvalo, milliy tarix xolisona, ilmiy tarzda o'rganilishi, tahlil etilmog'i muxim. Bunda hissiyotga berilish naf bermaydi. Tarixiy xotirani tiklash, yoshlar ma'naviy qiyofa'ini tiklash aniq raqamlar, to'g'ri, ilmiy asnodagi xulosalarga qurilishi talab etiladi.

Mustaqillik yillarida bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xuzurida O'zbekistondan tashib ketilgan madaniy boyliklarni Vatanimizga qaytarish bo'yicha maxsus komissiya tashkil

etildi. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix va Arxeologiya institutlari jamoasi tomonidan bu borada jiddiy tadqiqot ishlari olib borildi.

Natijada mustamlakachilik davrida O`zbekistondan juda ko`p madaniy va tarixiy boyliklar zo`ravonlarcha tashib ketilganligi aniqlandi. Biz yukrda qayd etganimiz kabi Rossiya mustamlakachiligi davrida rus amaldorlari, ofierlari moddiy buyum, boylik sifatida yurtimizda yaratilgan ko`plab madaniy boyliklarni talon-toroj qildilar. Xususan, 1865 yildan 1917 yilgacha Markaziy Osiyodan 3000 qo`lyozma asarlar Rossiyaning ko`plab kutubxopalari, arxivlari, muzeylariga olib ketilgan. Agar 1865 yilgacha tushgan qo`lyozmalarni ham hisobga oladigan bo`lsak, ularning miqdori keltirilgan ushbu raqamdan bir yarim marta oshib ketadi. Rossiyaning birgina Osiyo muzeyiga 1874—1916 yillarda V.V. Bartol'd 20, V.V. Vsl'yaminov Zernov 19, N.N. Veselovskiy 3, V.V. Vyatkin 6, D.M. Gramenistkiy 18, I.I. Desnist`siy 7, K.G. Zeleman 105, I.I. Zarubin 11, V.I. Ignat`ev 8, A.R. Kal`mikov 4, Kartashev 1, K.P. Kaufman 18, V.O. Klemm I, D. Karen 1, LL. Kun 85, I.L. Lerx 32, Pospelov 8 ta va yana boshqalar tomonidan ko`plab qo`lyozmalar topshirildi. Turkiston o`lkasidan eng ko`p madaniy boyliklar V.A. Ivanov tomonidan o`g`irlab ketilgan bo`lib, ular soni 605 tani tashkil etadi. Ushbu qo`lyozma;shar aksariyat holda yagona musxada bo`lib, ular haddan tashqari noyob edi. O`zbek xalqining milliy-tarixiy xotirasini shakllantirishga xizmat qiladigan bunday madaniy boyliklarini., afsuski, hozirgacha yurtimizga qaytarilmadi.

Mustamlakachilar, shuningdek, kommunistik mafkura maddoxlari qam o`lkamiz moddiy-madaniy boyliklarini tizimli ravishda talash, tashib ketish siyosatini olib bordilar. Bunday harakat, ayniqsa. sovet mustabid tizimi davrida avj oddi. O`zbekiston moddiy-madaniy boyliklarini tashib ketishdan maqsad bor edi. Ular quyidagilardan iborat edi:

- o`lka madaniy - tarixiy yodgorliyutrinm tashib ketish natijasida O`zbekiston milliyma`rifiy, ilmiy salohiyati darajasipi suN`iy ravishda pasaytirish va shu orqali xalqimizni madaniy jihatdan «qoloq», «savodsiz» degan yorliqlar bilan «siylash»;

- Rossiyaning ko'plab shaharlaridagi ilmiy, madaniy-ma'rifiy markazlar jamg'armalarini to'ldirish, o'zlarining mustamlakachilik siyosatini xaspo'shlash, yashirish maqsadida soxta g'amxo'rlik qilish, o'zbek xalqi madaniy boyliklarining «yo'qolib ketishi»ning oldini olish bahonasidatashib ketish siyosatini «asoslash»;

- mamlakatimiz madaniy-tarixiy boyliklarini tashib kstish orqali xalqimizning o'zligini anglash jarayonini pasaytirish va asta-sekinlik bilan uni mutlaqo tugatish, xalq tarixiy xogirasini o'chirish, manqurtlik sifatlarini kuchaytirish.

Albatta, bunday siyosat nihoyatda uzoqni ko'zlab amalga oshirildi. Uzbsk xalqining tarixini «o'rganish», o'lka madaniy boyliklarini «saqlab qolish» uchun turli tarixiy, etnografik, arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etila boshlandi. Umuman, masalaga milliy manfaatlar asosida va xolisona ravishda munosabatda bo'linsa sovet hukumatni bunday siyosatni chuqur o'rgangan halqda amalga oshirganligini ko'rish mumkin.

SHu o'rinda ayrim muammolarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq, bo'lardi: havaskor arxeolog J.Kastan'e Turkistonda juda katta miqdordagi madaniy boyliklarni to'iladi. Bu boyliklarning katta qismi Ermitajga, 500 ta buyum Turkiston muzeyiga topshirilgan. J. Kastan's o'zi to'plagan kagga mistdordagi madaniy boyliklarning eng katta va eng qimmatbaho, sara qismini Parijga olib ketgan.

Moskva va Peterburg muzeylarini to'ldirish ishlari ayniqsa jadal olib borildi. Jumladan, sobiq SSSR Faga qarashli Antrologaya va etnografiya muzeyini Markaziy Osiyo, xususan, Uzbekiston, o'zbek xalqi madaniy boyliklari hisobiga to'ldirishga alohida e'tibor berildi. 1924 yilda muzeyga 514 xildagi noyob yodgorliklar, 1927 yilda 203 buyumdan iborat o'zbek xalqi hayot tarziga oid etnografiya yodgorliklari tashib kstildi. Keyinchalik etnograf A.K. Pistarchuk tomonidan Fargona va Toshkent madaniy hayotiga oid 300 ga yaqin nodir buyumlar olib ketildi.

Petsrburgdagi «SSSR xalklari etnografiyasi» muzeyiga esa, O'zbekistonda dadil ishlagan S.M. Dudin tomonidan 8 yil davomida 4000 dan

ortiq osori atiqalar «tortiq qilindi». Moskvadagi SHarq madaniyati muzeyi xam 1918 yilda Markaziy Osiyodan olib ketilgan yodgorliklar asosida tuzilgan. Bu muzey fondi doimiy ravishda to`ldirib turildi va 1000 dan ortiq eksponatlarga ega bo`lib, ko`pi zargarlik buyumlaridan iborat edi. Moskvadagi Tarix davlat muzeyi ham Markaziy Osiyodan keltirilgan mingga yaqin eksponatlarga ega.

Xo`sh, biz nima uchun mustamlakachilik davrida yurtimizdan zo`ravonlarcha tashib kstilgan bunday tarixiy madaniy boyliklar tavsifiga alohida e`tibor qaratdik? Buning sababi shundaki, hozirgi yoshlarimiz Vatan va millat tarixini, yurtimizning jahon sivilizatsiyasiga qo`shgan hissasini bilmas ekan, UZ tarixiy xotirasini tiklay olmas ekan, bularning bari, shubhasiz, milliy rivojlanishimizga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. YOshlarimiz o`z tarixiy xotirasini tiklar ekan, bunda boy tariximiz, milliy-madaniy qadriyatlarimizga suyanar ekan, bunday yoshlar tom ma`noda millat suyanchig`i, kelajak garovi sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Biz milliy tariximizni o`rganishni, ayni paytda, umum bashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o`z oldimizga katga vazifa sifatida qo`yganmiz. Bular, shubhasiz, milliy mustaqilligimizning g`oyaviy siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma`rifiy asoslarini mustahkamlaydi. Bu haqla ko`p gapirilmoqda.

Ayni paytda mustaqillik biz uchun buyuk ne`mat, muqaddas tuyg`u ekanligini ham bilamiz. SHu o`rinda ayrim fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning mustaqillik buyuk fenomenal xodisa ekanligini chuqur anglab eta olmayotgakliklarini ham kuzatishimiz mumkin. Istiklol yo`li ravon, tekis bo`lmaganligi, unga erishish uchun qancha qonlar la jonlardan kechganligimizni [hozirgi](#) yoshlarimizning barchasi ham bilarmikin?

Afsuski, barcha eshlarimiz ham mustaqillikka erishishning og`ir yo`llari haqida chuqur bilimga ega emas. SHu ma`noda sovet davrida olib borilgan milliyozodlik, istiklol uchun qurashlar haqida ikki ogiz fikrlashish maqsadga muvofiqdir.

Ma`lumki, sobiq sovet daplati o`rnatilgandan so`ng asosiy e`tibor kommunistik partiyaning nufuzini oshirishga qaratildi. Buning uchun esa, o`zbek xalqining

milliy o`zligini anglash jarayonini to`xtatish lozim edi. SHu asnoda turli siyosiy o`yin va nayranglar o`ylab topildi. Jumladan, «bosmachilik» qarakati, «madaniy inqilob», qishloq xo`jaligini «ommaviylashtirish», sanoatni «industrlashtirish» kabi sun`iy harakatlar, ilmiy jihatdan asoslanmagan jarayonlarga yo`l berildi.

Bunday xato xatgiharakatga qarshi chiqkan har qanday inson, toifa hukmron siyosiy kuchning dushmani, demakki, «xalq dushmani», deb e`lon qilindi. Bu jarayon O`zbekistonning sovet hokimiyati davridagi barcha bosqichlarida mavjud bo`lgan bo`lsada, ayniqsa, o`tgan asrning 2030 yillarida juda avj oldi. Qatagop siyosati aslida tobora oshib borayotgan xalq ma`naviyati, ma`rifatiga qarshi kurash, milliy o`zlikni anglashni to`xtatish, xalq tarixiy xotirasini o`chirishdan boshqa narsa emasdi. Jumladan, XX asrning 20yillari o`rtalari va 30yillar mobaynida O`zbekistonda 40 mingdan ortiq dehqon xo`jaligi «quloq» qilinib, ulardan 31,7 ming qatag`on» qilingan edi¹.

YOshlarimiz mustaqillikning qadrini yanada yorqinroq bilishi va tasavvur etishlari uchun o`sha davrda mavjud bo`lgan ommaviy qatag`onlar sababini anglab etishlari lozim. Qolaversa, mustamlakachilar o`z siyosatlarini xaspo`shlash uchun turli siyosiy o`yinlarni o`ylab topdilar.

Masalan, 1937—1938 yillarda markaziy hukumatning jazo organlari va uning respublikadagi «nazoratchilari» O`zbekistonda yirik aksilinqilobiy tuzilmalarni «fosh etdilar» va «tugatdilar». Bular quyidagilardan iborat edi: respublikya rahbarlari Akmal Ikromov va Fayzulla Xo`jaev boshchiligidagi «Burjua millatchilik aksilin qilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriev rahbarligidagi «Musulmon ruhoniylarining millatchiisyonchilar tashkiloti», «Aksilin qilobiy o`ng trostkiychi josuslar tashkiloti markazi», S. Xo`janov boshchiligidagi «Aksilin qilobiy millatchi qozoqlar tashkiloti», «Buxoro va Turkiston baxtsaodati» nomli sovetlarga qarshi aksilin qilobiy tashkilot, respublika komsomoli MQ kotibi I. Ortiqov rahbarligida «YOshlarning aksilinqilobiy burjuamillatchilik tashkiloti», «Uyg`urlarning aksilin qilobiy josuslikisyonchilik tashkiloti» va boshqalar¹.

YOshlarimiz shu narsalarni aniqlavshan bilib olishlari lozimki, qatag`on yillari siyosati, eng avvalo, o`zbek xalqining ziyolilari — o`qituvchilari, olimlari, madaniyat va san`at arboblari qarshi qaratilgan edi. Buning o`z sabablari mavjud edi, zero, ziyolilar millatni uyg`otish, tarbiyalash. milliy o`zlikni anglash, jamiyat a`zolarida tarixiy xotirani tiklashda asosiy rol o`ynardilar. SHuning uchun ham qatag`on yillarida millat manfaatini, ozodlik, hurlikni tarannum etgan har qanday shaxsga nisbatan turli bo`htonlar uyushtirilar va ular yo`q qilib yuborilar edi. «Qosimovchilik», «O`n sakkizlar guruhi», «Inog`omovchilik» kabi uydirmalar aynan o`sha maqsadlarda tashkil etilgan edi.

Ular odatda «xalq dushmanlari», deb nomlanganlar. SHu o`rinda ayrim misollar keltirish yoshlarimizning ongini yanada rivojlantiradi, deb o`ylaymiz: 1931 yilda Samarqand shahridagi Pedagogika akademiyasiga direktor etib tayinlangan Q. Abdullaev ushbu oliy o`quv yurtini universitetga aylantirish haqidagi o`z taklifi bilan yuqori idoralarga murojaat qiladi. Universitetda o`quv va ilmiy ishlarni o`zbek tilida olib borish, o`qitish jarayonida mahalliy xalqning ajdodlari merosidan foydalanish, oliy ta`lim muassasalarida dars berayotgan mahalliy millat vakillariga ilmiy unvonlar berish yo`lida jonbozlik ko`rsatadi. Ammo, uning sa`y harakatlari mavjud tuzum tomonidan qo`llab-quvvatlanmadi va bu harakatlarga yo`l berilmadi.

O`zbekistonning tarixchi olimi B. Soliev ham Vatan, millat tarixini o`rganishga, tarix fanining rivojlanishiga munosib hissa qo`shgan olimlardan hisoblangan. «O`rta Osiyo tarixi», «Buxoro tarixi», «Mang`itlar saltanati davrida Buxoro o`lkasi», «O`zbekiston tarixi XV— XIX asrning yarmi» kabi asarlar, ko`plab ilmiy maqolalar muallifi bo`lgan B. Solievning xalqning milliy o`zligini anglash, tarixiy xotirani tiklash yo`lidagi bu harakatlari uni «xalq dushmani» deb atashga asos bo`ldi. U qatag`on qurboni bo`ldi.

O`sha yillarda oliy o`quv yurtlari talabalarining «siyosiy tozaligi»ni tekshiruvchi «Oliy o`quv yurtlarini tozalash bo`yicha maxsus markaziy komissiya» faoliyat ko`rsatgan. Har bir oliy o`quv yurtida mazkur komissiyaning bo`limlari kelib chiqishi mehnatkash bo`lmagan, mulkdor sinfga taalluqli bo`lgan talabalarni

«fosh» qilish va ularni institut, universitetlardan chetlashtirish kabi vazifalarni bajarganlar¹. Xuddi shunday holat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kuzatilgan. «Guruhbozlik»ni fosh etish, «xalq dushmanlarini» topish, ularni jazolash sovet mustabid tuzumining asl mohiyatini tashkil etardi.

Ziyolilarni qatag'on va qatl etish millatning o'zligini anglash jarayonini yo'q qilishga qaratilgandi. 1936 yilning oxiridan 1940 yilgacha respublika bo'yicha 5758 nafar ziyoli — yozuvchi, olimlar, rahbarlar, madaniyat, san'at arboblari qamoqqa olindi. Ularning 4811 nafari otib tashlandi². 1937—1939 yillarda jami 41 ming kishi qamaldi. Ularning 37 ming nafari jazolandi, 6920 nafari otildi.

Mamlakatimizning uzoq va yaqin tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mustaqillik, ozodlik va erk tushunchalari xalqimiz uchun doimo eng muqaddas tuyg'ular bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Tom ma'noda mustaqillik uchun kurash I. Karimovning respublikaning birinchi rahbari etib saylanganidan so'ng boshlanganligini ham unutmashlik lozim.

SHu o'rinda o'tgan asrning 80 yillari oxiri, 90 yillari boshidagi taxlikali davrlarni esga olish yoshlarimizning mustaqillik g'oyalarini yanada chuqurroq o'zlashtirishiga imkon beradi, deb o'ylaymiz. Yurtboshimiz I.A. Karimovning o'sha davrdagi sobiq markaz oldida dadil harakatlar olib borishi, mamlakatimiz va xalqimiz milliy manfaatlariga ustuvor ahamiyat berishi, ilmiy asoslangan reja asosida istiqlool sari jadal qadam tashlashi o'z natijalarini berdi. Bunda uch jihatga alohida ahamiyat berishimiz, yoshlarimiz bularni chuqur o'rganishi lozimligini qayd etish maqsadga muvofiqstir:

1. 1989 yil 21 oktyabrda «O'zbek tili»ga davlat tili maqomining berilishi;
2. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasida SSSR doirasida birinchi bo'lib, O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining ta'sis etilishi va bunga asosan 1990 yil 24 martda I. Karimovning O'zbekiston SSRning birinchi Prezidenti etib saylanishi;
3. 1990 yil 20 iyunda Respublika Oliy Soveti tomonidan Mustaqillik Deklarastiyasining qabul qilinishi.

Ta`kidlash lozimki, bular O`zbekistonning mustaqillik sari tashlagan salobatli va zafarli qadamlari edi. Ushbu tarixiy haqiqatni anglash, shubhasiz, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tarixiy xotirasini tiklashda muhim o`rin egallaydi. YOshlarimiz mustaqillik o`zbek xalqi uchun kurashlar tarixi ekanligini anglar, uni qo`lga kiritish xalqimizning asriy orzusi bo`lganligini chuqur his etar ekan, shundagina mustaqillikning tom ma`nodagi qadrqimmatini, nufuzini tushunib etishlari mumkin.

Qolaversa, xalq, ayniqsa, yoshlar tarixiy xotirasi millat ma`naviyatining asosiy bo`g`inlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy xotirasi bo`sh xalq — kelajagi mavhum xalq. Tarixiy xotira va milliy ma`naviyat uyg`unligi kelajakni belgilab beruvchi, xalqni uyushtiruvchi, yagona maqsad ostida birlashtiruvchi kuchdir. Millatimiz uzoq mustamlakachilik davrida og`ir qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Bizni turli baloyu qazolardan saqlab qolgan, yangi ezgu maqsadlar sari etaklagan tuyg`u — tarixiy xotiradir. Biz o`z tariximizni o`rganishimiz, yutuqlardan faxrlanishimiz, yo`l qo`ygan xatolarimizni takrorlamasligimiz uchun ham tarixiy xotira zarur. «O`tgan davr mobaynida, — deydi YUrtboshimiz, — eski tuzumdan og`ir meros bo`lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko`hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo`lida xalqimizning ma`naviy yuksalishini o`z oldimizga qo`ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo`lib kelganini va bugun ham e`tiborimiz markazida turganini ta`kidlash lozim»'.

KOMIL INSON TARBIYASI VA MILLIY

O`ZLIKNI ANGLASH

Komil inson tarbiyasida milliy o`zlikni anglashning ahamiyati katta bo`lib, mustaqillik yillarida bu o`ziga xos hususiyatga ega bo`ldi. Milliy o`zlikni anglashning tiklanishi esa, o`z navbatida, mustaqil jamiyatimizning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma`naviy zaminlarining mustahkamlanishiga sabab bo`ladi.

SHuning uchun ham milliy o`zlikni tiklash masalasi O`zbekiston o`z mustaqilligiga erishgandan keyin mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sifatida davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g`oyat ulkan, bebaho ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo`lib qoldi.

Biz ma`naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o`zlikni anglashning o`shishidan, xalqning ma`naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb qisoblaymiz", — deydi I. A. Karimov.

Tarix saboqlari milliy o`zligini, milliy manfaatlarini, taraqqiyoti istiqbollari chuqur, xolisona, odilona anglagan xalq va millatgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo`lishi mumkinligini har doim isbotlab kelgan.

Milliy o`zlikni anglashni tiklash va milliy o`z-o`zini anglash o`zaro mantiqiy aloqadorlikdadir.

Milliy o`zlikni anglashni tiklash milliy uyg`onishning, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti, jamiyat hayotida ro`y beradigan madaniy-ma`naviy o`zgarishlarning asoslaridan biridir.

Milliy o`zlikni anglash mazmunmohiyatiga ko`ra keng va chuqur ma`noli, ko`p qirralidir. Uning mohiyati millatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma`naviy maqsad va manfaatlarini, o`tmish tarixi, tarixiy merosi, milliy tili, urf-odatlarini, qadriyatlarini, odob axloqini bilish bilangina bog`liq bo`lmay, muayyan tarixiy sharoitlar bilan ham belgilanadi.

Milliy o`z-o`zini anglash —bu, eng avvalo, milliy manfaatlar nimalardan iboratligini tushunib etish, chuqur idrok etishdir. Milliy manfaatlar —millat tarixini to`g`ri tushunish, uning jahon stivilizatsiyasiga qo`shgan hissasini, ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy manfaatlarini hozir va kelajakda himoya qilish yo`llarini bilish va ana shu maqsadlar asosida birlashishdir.

Milliy manfaatlarni anglash millatning o`z-o`zini anglashiga, millatning birlashishiga olib keladi.

O`z-o`zini anglash —bu xalqning, millatning o`z tarixiy o`tmishini, nasl-nasabi, bobo va bobokalonlarining kimligini bilib, chuqur anglab olishdir. Yurtboshimiz ta`biri bilan aytganda, **"Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo`lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o`ziga berishi tabiiy... Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun, mana shunday savollarga duch keladi va, aminmanki, to`g`ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson — irodali inson, Takror aytaman, irodali inson".**¹

Avlod - ajdodi kimligini, nasl-nasabini bilish — milliy o`zlikni anglashning muhim omilidir. Har bir odamzod millatidan qat`iy nazar, eng avvalo, nasl-nasabi bilan faxrlanishi, ota-bobolarining muborak nomlariga dog`tushirmaslikka, o`z mehnati, bilimlari bilan buyuk ajdodlarining obro`sini ko`tarishga harakat qilmog`i lozim.

Milliy o`zligimizni anglash o`zbek xalqi jahondagi eng qadimiy xalqlardan bo`lib, uning tarixi bir necha ming yilliklardan iboratligini bilib olish demakdir. O`zbeklar tarixda kuni kecha paydo bo`lgan xalq emas.

O`zini o`zbek va o`zbekistonlikman, deb hisoblaydigan har bir inson va fuqaro qadimgi Turoni Turkiston azal - azaldan jahon shumul ilmiy kashfiyotlar, betakror me`morlik, san`at va madaniyat namunalari, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, tijorat, ishbilarmonlik an`analari yuzaga kelgan va taraqqiy etgan maskan ekanligidan behad quvonadi. Ollohning nazari tushgan ana shu tabarruk zamindan ne-ne allomalar, olimu fuzalolar, buyuklar ichra buyuk

hisoblanmish ulamolar, nomlari kurrai zamin uzra ma`lumu mashhur bo`lgan sohibqironlar, siyosatchilar, sarkardalar, donishmand shoh-u sultonlar saf-saf bo`lib etishib chiqqan.

Milliy o`z-o`zini anglash, zikr etib o`tilganlardan tashqari yana jamiyati va Vatanining porloq istiqbolini ta`minlash uchun o`zida kuch va imkoniyatlar mavjud ekanligini, uning o`zi qanday vazifalarni amalga oshirishi, nima ish qilishi lozim va zarurligini ongli ravishda tushunib etishidan ham iboratdir. Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat er osti va usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o`zining yuksak ma`naviyati va madaniyati bilan kuchlidir".

Darhaqiqat, xalq va millatning kuch-qudrati, obro` e`tibori va salohiyati uning soni bilan o`lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongi o`sganligi, o`z-o`zini anglab etganligi, milliy hamjihatligi bilan belgilanadi. Buni Evropa va Osiyoning qator ilg`or mamlakatlari va xalqlari misolida ko`rish mumkin.

O`zining bir necha ming yillik tarixini, urf-odatlarini, an`analari, odob axloqi, turmush tarzi, madaniyati, ma`naviyati, qadriyatlarini yaxshi bilgan, ulardan ruhiy kuch-quvvat oladigan, o`tmish tarixi, nasl-nasabi bilan mag`rurlanib, qaddini tik tutib, boshini baland ko`tarib yuradigan, fikri chaqmoqday o`tkir, aqli etuk, tafakkuri kuchli xalq va millatni bosib olib qul qilish, asoratga solish mumkin emasligini mustamlakachi mamlakatlar juda yaxshi bilishgan.

Tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, necha-necha bor ta`kidlanganidek, barcha bosqinchilar biror mamlakatni bosib olib hukmronlik qilish, xalqni mustamlakachilik iskanjasida ushlab turish, boyliklarini istagancha talash uchun uning madaniyati, ma`naviyatiga tajovuz qilganlar, milliy ongi o`shishiga, milliy o`zligini anglashiga yo`l bermaslik uchun tish tirnoqlari bilan qarshilik ko`rsatganlar.

Madaniyatni, ma`naviyatni barbod etish, milliy til, milliy ong rivojlanishiga yo`l bermaslik, ommani siyosiy qaramlik, manqurtlik holatida ushlab turish mazlum xalqlarni jilovda tutishning eng nozik yo`llaridan biri

ekanligini zo`ravonlik yo`li bilan bosib olgan chor amaldorlari juda yaxshi bilardilar. SHuning uchun ham ular bu masalaga jiddiy e`tibor berishgan.

O`tmishdagi bosqinchilar singari chor mustamlakachilari ham bu sohadagi amaliy ishni Turkiston xalqining asriy tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan judo qilishdan, yerli aholini ruhan , ma`nan mayib qilishga kirishishdan boshladilar. Bu bejiz emas edi, albatta. Balki chuqur o`ylab, uzoqni ko`zlab va rejalashtirilib qo`yilgan mash`um siyosat edi. Ana shu siyosatning zaminida bir tomondan, mustamlakachi chor hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini oshkora himoya qilish turgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, Turkiston xalqlarini, uning katta bir qismini tashkil etgan o`zbek xalqini milliy o`zligini anglashdan butkul mahrum qilib, o`tmishini unutgan, vatanparvarlik tuyg`usidan judo bo`lgan, istiqbolini ko`rolmaydigan odamlar guruhiga aylantirish muddaosi ham turardi.

SHo`ro davlati milliy chekka, o`lka xalqlarini ezish, boyliklarini talash borasida chorizm mustamlakachilik siyosatini oshkora ravishda davom ettirdi. U tarix sahnasida chorizm merosxo`ri sifatida paydo bo`ldi. Uning davrida ham milliylikni, milliy o`zlikni anglab olishni yo`qotishga qo`pol ravishda urinish, odamlarni qulsifat qilib shakllantirishga intilish zo`r berib davom ettirildi. U milliy birlik g`oyalari bilan sug`orilgan milliy ong rivojlanishi yo`lida turli g`oyalar tashkil etdi, milliy birdamlik, milliy tuyg`u rivojlanishi va yuksalishiga millatchilik deb qaradi.

Sobiq sho`ro tuzumi sharoitida mahalliy xalqlarning milliy o`zligini anglashini chegaralab qo`yish uchun barcha chora va tadbirlar ko`rildi. Prezidentimiz aytganlaridek, "...noinsoniy g`oya hukmron bo`lgan mustabid tuzum o`zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg`ularini qo`pol ravishda kamsitar, tarixiy haqiqatni buzib ko`rsatar edi. O`z ona tilini, milliy an`ana va madaniyatini, o`z tarixini bilmaslik ko`plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi.

Milliy o`zlikni anglashga bo`lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Navro`z, Ramazon, Qurbon Hayiti kabi ko`plab muqaddas milliy bayramlar ta`qiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al Buxoriy, Imom at Termiziy, Ahmad al Farg`oniy, Baxouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az Zamaxshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abduxoliq Rijduvoniyy kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho`lpon, Mahmudxo`ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o`chirib tashlashga harakat qilinar edi". Eski mustabid, ma`muriy buyruqbozlik tizimidan bizga ana shunday meros qolgan edi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin haq huquqlarimizni, tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz va qadriyatlarimizni bilishga, milliy o`zligimizni anglab olishimizga qarshi qaratilgan qatag`onchilik siyosatiga abadiy chek qo`yildi. Ana shu paytdan boshlab milliy o`zlikni anglashni tiklash davlatimiz siyosatida asosiy masala sifatida o`rtaga qo`yildi.

Prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" asarida o`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, degan goyatda muhim fikr mavjud. Darhaqiqat, xalqning haqiqiy, tom ma`nodagi tarixini yaratmasdan turib mustamlakachilik azob-uqubatlari tufayli taraqqiyotdan orqada qolib ketgan millatlarning milliy ongini, milliy tafakkuri va milliy g`ururini yuksaltirish, milliy o`zligini anglashni tiklash amrimaholdir.

Tarix o`tmishda ro`y bergan voqea, hodisa va jarayonlarning oddiy bir sahifasigina emas, balki vatanimizning o`tmishi, tarixiy taraqqiyoti haqida kishilarga bilim, saboq beradigan tarbiya maktabi hamdir.

O`tmish tarixini bilmagan va e`zozlamagan xalqning, millatning kelajagi porloq bo`lmaydi. O`tmish bizlar uchun ham, boshqalar uchun ham allaqachon qaytmas bo`lib ketgan, ko`z o`ngimizdan olislashgan, tarix mulkiga aylangan davrlardangina iborat emas, balki ahamiyati hech qachon yo`qolmaydigan, doimiy ravishda ruhiyma`naviy kuchquvvat berib turadigan tag zaminimiz, o`q ildizimizdir. O`tmish —tayanch nuqtamizdir. Ana shu tayanch nuqtaga,

ma`naviy poydevorga suyanmasak, o`tmishimizdan madad ololmaymiz, qad bastimizni tiklay olmaymiz, olg`a tomon rivojlana ham olmaymiz. O`tmishni bilmasdan kelajakni aniq va ravshan tasavvur etib bo`lmaydi.

O`tmishi, ajdodlari, bobokalonlari bilan faxrlanadigan, ularning muqaddas nomlariga hech qachon dog` tushirmaydigan, tarix saboqlari, o`gitlari, ogohlantirishlariga doimo hushyorlik bilan quloq tutib, uning yo`l yo`riqlariga qat`iy amal qiladigan xalqni, buyuk arboblarni tarix ham har doim yuksak darajada e`zozlaydi va qadrlaydi. Tarix o`tmish ajdodlarimizning avlodlariga, bo`lg`usi nasl-nasablariga qoldirgan shunday bir muqaddas hikmatlardirki, ularni qanchalik takror-takror o`rgansak, mag`zini chaqsak, amaliy faoliyatimizda ularga asoslansak, suyansak, o`zimiz va kelajagimiz uchun o`ta zarur bo`lgan yo`l-yo`riqlarni shunchalik ko`p topamiz.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o`lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o`zlikni anglashni, ta`bir joiz bo`lsa, milliy iftixorni tiklash va o`stirish jarayonida g`oyat muhim o`rin tutadi.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda, buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmokda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaga aylanmoqda".

Mustaqillik va u boshlab bergan milliy tiklanish, yangilanish tufayli inson ma`naviyati, yuksak odob-axloq va madaniyatining qudratli qatlamlari ochildi, go`zal milliy an`analari tiklandi, xalqning tarixiy ongi uyg`onmoqda. Odamlar qalbida milliy g`urur, ona zaminga, vatanga mehr-muhabbat tuyg`ulari kamol topmoqda.

Milliy o`zlikni anglashni tiklash va rivojlantirishning zarur shartlaridan biri —ona tilini bilish va unga katta hurmat bilan qarashdir. “Ona tilining ahamiyati shundaki” — deydi: Islom Karimov —u ma`naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi .

Agar millat va xalq uchun dunyoda biror bir muqaddas, abadiy va hayotiy tuygu bo`lsa —bu uning milliy ongidir, milliy o`zligini anglashidir. Milliy o`zligini

anglashning birinchi belgisi —milliy tildir. Millat mavjud ekan, uning tili ham saqlanadi va rivojlanadi. Millatning yashashi, mavjudligi uning tili bilandir. Til millatni millat qilib turgan eng muhim belgilardan biridir. Mabodo xalq biron bir sababga ko`ra, o`zining milliy tilidan judo bo`lsa, u muqarrar ravishda adoyi tamom bo`ladi. Agar til yashasa, o`sha til egasi bo`lgan xalq ham yashaydi. Til xalqning porloq istiqbolidir. Til inqirozga uchrasa, ko`ngildagidek rivojlana olmasa, ma`naviyat va ma`rifat sustlashadi.

Til xalqning dilidir, uning borligi, boyligi, hayotidir. Til milliy o`zlikni namoyon qilishning cho`qqisidir. Til — xalqning qalbi. ma`naviy hayotining asosidir. Milliy til gurkirab rivojlanmasa milliy ong o`smaydi. Milliy ong, milliy madaniyat o`smasa xalq milliy o`zligini anglab ololmaydi. Millatning buyukligi uning milliy o`zligini qanchalik anglab etganligiga, siyosiy etukligiga, milliy hamjihatligiga ko`p jihatdan bog`likdir.

Milliy o`zlikni anglashning tiklanishi milliy birlikka, milliy ahillik va milliy totuvlikka erishish va uni mustahkamlashning asoslaridan bo`lib hisoblanadi.

Milliy o`zligini anglab etgan xalq nafaqat o`zini, balki o`zga xalqlar va millatlarni, ularning madaniyati, ma`naviyati, tili, tarixi, urf odatlarini ham hurmatlaydi.

Milliy o`zlikni anglashning tiklanishi, jadal sur`atlar bilan rivojlanishi xalqlarni, mamlakatlar bilan do`stona hamkorligi, hamjihatligining yanada rivojlanishi, mustahkamlanishi uchun keng istiqbol yo`llarini ochadi. Milliy ma`naviyat bilan umumbashariy ma`naviyatning o`zaro uyg`unlikda rivojlanishi milliy o`zlikni anglashning tiklanishi va takomillik darajasiga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Siyosiy madaniyati etuk, milliy ongi rivojlangan, o`z-o`zini milliy jihatdan anglab etgan, qadriyatlarini tiklagan xalq mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Shunday xalq va millatning kelajagi buyukdir.

MUSTAQILLIK YILLARI YOSHLAR RUXIYATIDAGI UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK

Yoshlar jamiyatning ijtimoiy tarkibida nisbatan mustaqil tuzilma bo`lib, umuman ijtimoiy tizimga xos qonuniyatlar unda muqarrar aksini topadi. Shu bois yoshlar ijtimoiy guruhlarining hayot faoliyati xususiyatlarining tadqiqi ularning ahvolini, rolini va faoliyat turlarini jamiyat dinamizmi, o`z navbatida yoshlarga va ularning psixologiyasiga ko`p jihatdan ta`sir qo`rsatishini hisobga olgan holda belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy holatga doimo mos kelishi darkor. Falsafiy yondashuv yoshlarning turli guruhlari ijtimoiy mansublik, mehnat xarakteri, yoshi, qiziqishlari va shu kabilar bilan bog`liq bo`lgan o`z psixologik xususiyatlariga ega ekanliklarini hisobga olishni talab qiladi.

Bizningcha, yoshlarni o`quvchi yoshlar; ishchi yoshlar; qishloq yoshlari; ijodkor yoshlar singari asosiy kichik guruxlarga bo`lish mumkin.

O`quvchi yoshlar o`zining ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimidagi o`rni, mashg`ulot turi hamda mehnat xarakteriga qo`ra o`ziga xos turmush ukkladiga ega bo`lgan, yuqori sinflar o`quvchilari, Kasb-hunar texnika kollejlari, o`rta maxsus o`quv yurtlari o`quvchilari, oliy o`quv yurtlari talabalaridan iborat bo`lgan yoshlarning alohida ijtimoiy guruhini tashkil qiladi. Ularning jamiyatdagi ahvoli hamda ijtimoiy-iqtisodiy roli ancha keng. O`quvchi yoshlar psixologiyasiga, eng avvalo, bilimga intilish, hayotda o`z o`rnini topishga imkon beradigan muayyan ixtisosni, kasbni egallash xosdir.

Yoshlarda xo`jalik mustaqilligi, tadbirkorlik va tashabbuskorlikning barqaror stereotiplarini, o`z imkoniyatlari hamda qobiliyatlariga tayanish xissini rivojlantirish bilan tavsiflanadigan hozirgi sharoitda o`z kasbkorini o`zi belgilashning ahamiyati ortib boradi, chunki u kishining shaxsiy hayotiga ta`sir qilibgina qolmay, balki turli ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa ijtimoiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi.

Kasb-hunar yo`nalishi bo`ljak ixtisosni tanlashni, mehnat faoliyatining xususiyati hamda uning mehnat taqsimoti tizimidagi o`rni haqidagi tasavvurni, yangi ijtimoiy maqom kasb etishni, psixologiyaning, turmush tarzining

o`zgarishini, yangi huquq hamda majburiyatlarning paydo bo`lishini o`z ichiga oladi.

Yoshlarning kasbkorini o`zi belgilashi muammosini tahlil qilish natijasida uning ijtimoiy va psixologik jihatdan ancha murakkabligi, bu jarayonning ilk o`spirinlikdan boshlanib, bir necha yil davom etadigan ko`p bosqichli xarakteri aniqlanadi. Kasb yo`nalishi tor ishlab chiqarish xususiyatigagina emas, balki birmuncha keng ijtimoiy hamda axloqiy psixologik mazmunga ham ega, ya`ni har kim, birinchi navbatda, o`z salomatligidan, tabiiy va orttirilgan intellekt elementlaridan, qobiliyatidan, imkoniyatidan, mayllaridan hamda hayotiy maqsadlaridan kelib chiqib kasb tanlamog`i darkor.

O`quv jarayoni yoshlarda psixologik, axloqiy va kasbkor bilan bog`liq fazilatlarni tarbiyalashning asosiy bo`g`inidir.

Mavjud ta`lim tizimi tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarning asosiy elementlarini ijodiy egallash uchun katta imkoniyatlarga ega. Hozirgi sharoitda ta`lim va tarbiya sifatini oshirish uchun bir qator yirik ilmiy-metodik muammolarni hal qilish: o`quv jarayoniga o`qitishning zamonaviy texnika vositalarini hamda texnologiyalarini joriy etish zarur. Xizmat ko`rsatgan o`qituvchi I.S. Plujnikov: «O`quvchilarni faqat qiziqish hamda hayratlanishgina bironbir masala ustida o`ylashga majbur etishiga ishonchim komil. Aql-idrok bilan birga his-tuyg`u ham ijodiy faollikni yuzaga keltirib ishlagandagina tushunish sodir bo`ladi», deb yozgan edi.

Yoshlar ta`limi va tarbiyasida, ularda ijtimoiy psixologiyani shakllantirishda o`qituvchining shaxsiy fazilatlari, nazariy, metodik tayyorgarligi hamda axloqiy qiyofasi birinchi darajali ahamiyatga ega. O`qituvchi — ijodkor, yuksak madaniyatli, g`amxo`r, e`tiborli va boshqalarga nisbatan mehribon, lekin g`oyaviy bahslarda murosasiz ziyoli kishi. U eng yangi ilm-fan, san`at, ijtimoiy hayot yutuqlaridan hamma vaqt boxabar, o`z bilimini oshirishga doimo intiladi, chunki o`qituvchi o`qib turar ekan, o`qituvchiligicha qoladi. Maktab o`quvchilari va talabalar g`oyaviy va axloqiy prinstipiiallikni, o`z

xalqiga, uning ideallariga sadoqatni uning shaxsiy namunasi asosida o`rganishlari darkor.

Jamiyatni isloh qilishning hozirga sharoitida yoshlarning bir hovuch faktlarni o`zlashtirishiga ishonib bo`lmaydi. Ularga o`z bilimlarini mustaqil to`ldira bilishni, o`z hayotini baholashni, hal qilishni va yo`lga qo`yishni, benihoya ko`p axborot oqimida mo`ljala ola bilishni, ongida professionalizm va bilimdonlikni mustahkamlashni, o`z tafakkuri asoslarini shakllantirishni o`rgatish muhim. «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta`limi va tarbiyasini ko`rgan shaxslar kerak, — deb ta`kiddaydi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov. — Shu joyda yana bir og`ir savolga duch kelamiz: bolalar qaysi sinfdan boshlab mustaqil fikr yurita boshlaydi? Umuman, maktablarda bolalar mustaqil fikr yuritishga o`rgatiladimi? Aminmanki, o`rgatilmaydi». I.A. Karimov davom ettirib, ta`kidlaydiki: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o`z yo`liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».

Hozirgi ilmiy-texnika revolyustiyasi, turli tuman axborot manbalari mavjudligi sharoitida mustaqil ishlash to`plangan bilimlarni o`zlashtirishning muhim shakli sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Murakkab ijtimoiy hodisalarni tushunishda mustaqil yondashuv o`ta muxim ahamiyatga ega bo`ladi.

Ta`lim o`qitilayotganlarga bilim beribgina qolmay, balki ularni ilmiy fikrlashga, tafakkurini rivojlantirishga o`rgatishi, ijodkorlikka intilishni yuzaga keltirishi, ularning bilish faoliyatini faollashtirishi ham lozim.

O`quv jarayoni bo`lajak mutaxassis shakllanishining markaziy bo`g`ini hisoblanadi, lekin u yolg`iz bo`gin emas. U darsdan tashqari vaqtda maktablar, kollejlarda, oliy o`quv yurtlarining butun hayotini qamrab oladigan turlituman g`oyaviy - tarbiyaviy ishlar bilan to`ldiriladi.

Talabalar ziyolilar safini to`ldiruvchi asosiy kanal hisoblanadi. Shu bois ular sonining o`zgarishi dinamikasini, talabalar tarkibidagi turli ijtimoiy-kasbiy guruxlarning nisbatini, maxsus va ijtimoiy-axloqiy tayyorgarlik sifatini aniqlash

muhim ahamiyatga ega, chunki ular ilmiy-texnikaviy rivojlanish, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot sur`atlari bilan bevosita bog`liq.

Ijtimoiy psixologiyani va ijtimoiy ongni shakllantirish — murakkab va notekis jarayon. U barcha ijtimoiy hodisalarni ularning kundalik hayot sharoitiga, his-tuyg`ularga hamda kayfiyatlariga ta`siri orqali tahlil qilishni talab etadi. Shuning uchun psixik hodisalar voqelikni aks ettirgani holda, inson xatti-harakatining boshqaruvchisi bo`lib xizmat qilishidek fundamental fakt ob`ektiv psixologik bilishning chinakam asosi bo`lib chiqadi. Psixik hodisalar bilan insonning zohiriy namoyon bo`lishini birlashtiruvchi aloqa ayni shundan iborat. Ularni ob`ektiv ilmiy tushunish metodi — psixik hodisalarni insonning ushbu psixik hodisalar bilan boshqariladigan xatti-harakatlari orqali bilish shunga asoslanadi.

Talabalar muhitida kundalik muloqot bo`lib turgan sharoitda shaxsning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari birmuncha shakllanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy ishda talabalar muxitida tarkib topadigan, pedagoglar bilan talabalar o`rtasida, talabalarning jamoat, madaniy va ilmiy ishlarida ro`yobga chiqadigan mikro muhitga ta`sir ko`rsatish muhim hisoblanadi.

I.A. Karimov ta`kidlaganidek, jamiyatni isloh qilish vazifalarini bajarish «eskicha fikrlash yukidan xoli bo`lgan yangi xodimlar tayyorlashning yagona tizimini yaratishni taqozo etadi. Ta`lim berishning, ma`naviy, axloqiy va kasb malakasi bo`yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqilishi zarur. Sifat jihatidan butunlay yangi o`quv dasturlari yaratilishi darkor».

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq ta`limini tubdan isloh qilish jarayoni bormoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichma bosqich bajarilmoqda va barcha darajadagi o`quv yurtlarining faoliyati tubdan qayta qurilmoqda. Barcha viloyatlarda ilmiy va o`quv dargohlari ochilib, ular istiqbolda ilm markaziga aylanishi mumkin. Yoshlarda mutlaqo yangicha yo`nalishlar, jumladan, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya, xalqaro jurnalistika va iqtisodiyot, bozor munosabatlari hamda bilimning boshqa yo`nalishlari bo`yicha tayyorgarlik ko`rish imkoniyati yuzaga keldi.

Bozor munosabatlari kadrlarga nisbatan qattiq talablar qo`ygani bois respublika oliy o`quv yurtlariga tanlov qoidasi ham o`zgartirildi. Respublika oliy o`quv yurtlariga kirishda abituriyentlar test sinovlaridan o`tishadi. Iste`dodli yoshlar, «Umid» jamg`armasi grantini olganlar tanlov asosida jahondagi nufuzli o`quv maskanlariga jo`natiladilar.

Ishchi yoshlar mehnat xarakteridan, qiziqishlaridan, rag`batlaridan, qadriyat yo`nalishidan kelib chiqadigan o`ziga xos psixologik hususiyatlarga ega bo`lishadi. Ishchi yoshlarni tayyorlash muammosining dolzarbligi hamda keskinligi jamiyatning bugungi bosqichda muhim bo`lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi; bu — O`zbekistonning davlat mustaqilligi sharoitida jahon iqtisodiyotiga integrastiyalashayotgan yuqori darajada rivojlangan sanoat hamda qishloq xo`jaligini qaror toptirish jarayonini uzil-kesil yakunlashdan iborat. Ishchilar shaxsi katta-kichik ijtimoiy guruhlar ta`sirida shakllanadi. Yoshlarni ishlab chiqarishga jalb etish ularning hayotidagi juda muhim bosqichda sodir bo`ladi. Bu bosqichda ularning xarakteri, dunyoqarashi muayyanlik hamda barqarorlik kasb etgan holda faol shakllanadi, o`zligini anglashi rivojlanadi, axloqiy e`tiqodlari sinovdan o`tadi, estetik didi va turmush tarzi aniqlashadi. Bularning natijasida tarbiya doirasi kengayadi, shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishining barcha jihatlarini e`tiborga olish talab etiladi. Bunda an`anaviy tarbiya institutlari yoniga yangilari qo`shilayotganini ham nazarda tutish darkor. Ularning orasida maktab jamoasidan farqli ravishda hayotiy tajribasi, axloq, an`ana to`g`risidagi tasavvurlari har xil bo`lgan turli yoshdagi kishilarni birlashtiradigan ishlab chiqarish jamoasining roli alohida. Bu jamoa shaxsning ishlab chiqarishdan targ`ib, madaniy-maishiy sohalargacha bo`lgan qadriyat yo`nalishlarining butun majmuini faol shakllantiradi.

Biroq ishlab chiqarish jamoasi ta`sirining natijasi doim ham ijobiy bo`lavermaydi. Ba`zida bu jamoa salbiy ta`sir ham ko`rsatadi va agar yosh ishchining ahloqiy hamda fuqarolik pozistiyalari mustahkam bo`lsa, u bunday munosabatga qarshi tura olishi mumkin.

Yoshlarning mulkchilikning xilma-xilligiga va bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy psixologiyasining shakllanishida rangbarang tayyor mahsulot ishlab chiqarayotgan qo`shma korxonalar muxim rol o`ynayotganini amaliyot ko`rsatmoqda. Bunday korxonalar ilg`or texnologiyalarga ega bo`lish imkoniyatini yaratibgina qolmay, I.A. Karimov ta`kidlaganidek, «har qanday xorijiy yuqori malakali ishchi yoki mutaxassis bilan raqobat qila olishga qobil»¹, yaxshi tayyorgarlik ko`rgan mutaxassislarni tayyorlash imkonini ham beradi.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o`tilishi natijasida yoshlarning mehnat va ijodiy qobiliyatlari namoyon bo`lishi uchun zarur sharoit yaratiladi. Bozor ishlab chiqaruvchining monopoliyasini tugatib, yoshlarning ulkan ijodiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta`minlashi mumkin.

Yoshlarda xususiy, akstiyadorlik, xolding kompaniyalari va hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda aholiga xizmat ko`rsatish sohasi bilan bog`liq boshqa kompaniyalar ochish istiqboli paydo bo`ldi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo`lish, o`z ishini boshlash, o`zining bo`sh vaqti, dam olishi, oziqlanishi bilan bog`liq ehtiyojlarini qondirish uchun ortiqcha mablag`ga ega bo`la olish singari yangi psixologik omillar shakllanadi.

Qishloq yoshlarining ijtimoiy psixologiyasi ham o`ziga xos xususiyatlarga ega. Bu juda shartli tushuncha bo`lib, unda qishloq aholisiga mansubligagina umumiy alomatlarigina qayd etiladi, uning mehnat sharoiti hamda turmush tarzi xususiyatlari ta`kidlanadi. Qishloq yoshlari ham, garchi qishloq xo`jalik mehnatining bozor iqtisodiyotiga o`tilayotgan hamda mulkchilikning ko`plab shakllari qaror topayotgan sharoitda yangicha xususiyatlar kasb etadigan traktorchi, agronom, hosilot, veterinar, mexanik, sut sog`uvchi singari va boshqa kasblar bilan bog`liq xususiyatlari bilan farqlansada, shahar yoshlari singari tabaqalashgandir. Fikrimizcha, qishloq yoshlarining ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari bir biri bilan shu qadar bog`liqki, ularni birlikda ko`rib chiqishga to`g`ri keladi. Ayni mahalda bu hodisalar, dehqonlarning ijtimoiy psixologik

yo`nalishini tavsiflagani holda, ushbu ijtimoiy guruhning ijtimoiy psixologiyasi tizimida asosiy bo`g`in hisoblansada, mazmunan xar xildir.

Adabiyotlarda ta`kidlanganidek, «ma`naviyatning o`zak tushunchalarini shakllantirishni tabiiylik sharoitlari bilan uzviy bog`liq bo`lgan moddiy ishlab chiqarish xususiyatlari taqozo etadi». Ehtiyojlar manfaatlar negizida yotishi shubhasiz. Ehtiyojlar hamda manfaatlar esa ideallar bilan bog`liq. Biroq bu to`gridan to`g`ri bo`lmay, dialektik o`zaro bog`liqlidir. Binobarin, qishloq yoshlari hayotining ma`lum davrlarida har xil ehtiyojlar ularning manfaatlari hamda ideallarini shakllantiradi.

Hozirgi paytda qishloq yoshlarining moddiy ehtiyojlari yuqori darajada barqaror qondirilmayapti. Bu esa ma`naviy manfaatlar hamda ideallar inqiroziga olib kelmoqda. Demak, dehqonlar ijtimoiy psixologiyasi tarkibini, ehtiyojlar, manfaatlar hamda ideallarni dialektik birlikda ko`rib chiqish taqozo etiladi.

Afsuski, bu kategoriyalar ko`pincha ideallari iqtisodiy, yo intellektual sohalarga, ko`p hollarda ijtimoiy fikrga ham taalluqli bo`lgan turli darajadagi modellarda ko`rib chiqiladi. Nazarimizda, ehtiyojlar ham, manfaatlar ham, ideallar ham ijtimoiy psixologiyaning poydevori, uning keyinchalik biron bir ijtimoiy birlikning yo`nalishini ko`p jihatdan tavsiflab, guruxdar, sinflar, millatning boshqa barcha psixologik tuzilmalarida biron bir tarzda namoyon bo`ladigan juda muhim tuzilmalari sifatida qaralishi lozim. Qishloq aholisi yoshlari tarkibidagi o`zga ishlar shu asosda ro`y beradi. Yoshlarning qishloq joylardan ketib qolishi muhim muammo, chunki dehqonlar jamiyatda shunday jiddiy iqtisodiy va siyosiy kuchga aylanib borishmoqdaki, ularning bevosita ishtirokisiz davlatimiz mustaqilligini va iqtisodiy suverenitetini mustahkamlab bo`lmaydi.

Qishloq muammosini hal qilishdagi muhim qadam paxta yakkahokimligini tugatishdan iborat. Paxta yakka hokimligi doimo O`zbekiston ishlab chiqarish negizining asosini tashkil qilib kelgan ekinlarni to`liq siqib chiqardi. Shu bois tabiiylik nuqtai nazaridan qulay mintaqada eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari aholi ehtiyojlarini qondirolmasdi. Paxta yakka hokimligini

tugatish natijasida respublikada donli ekinlarni, sabzavot poliz, yem-xashak ekinlarini etishtirish, oziq-ovqat muammosini birmuncha hal qilish uchun sug`orma er maydonini ko`paytirish imkoni yaratdi. «Davlat respublikaning donga, qand-shakar va boshqa qimmatli mahsulotga bo`lgan talab katta ehtiyojini hisobga olib, ularni etishtirish hajmlarini oshirishni, shunday ekin maydonlarini kengaytirishni har tomonlama rag`batlantirib boraveradi», — degandi I.A. Karimov.

Bu o`z navbatida, respublikaning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o`zini o`zi ta`minlashida ko`mak bo`ladi. Hozirgi paytda qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan islohot respublikaning iqtisodiy yangilanishida juda muhimdir.

Bozorga o`tishning murakkab davrida aynan agrar sektorga alohida e`tibor qaratish lozim bo`ladi, chunki u shahar va qishloq aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa qishloq xo`jalik xomashyosiga bo`lgan ehtiyojini qondirishda eng katta salohiyatga egadir.

Hisob kitoblarga qaraganda, O`zbekiston Respublikasi qishloqlarida mehnatga yaroqli 6,5 mln. kishi istiqomat qiladi. Er maydoni ekstensiv ravishda o`zlashtirilayotgan bir sharoitda buncha miqstordagi qishloq aholisini ish bilan ta`minlashning imkoni yo`q. Qishloq xo`jaligiga yuqori samarador industrial metodlar, ilg`or mexanizastiya va agronomiya juda sekin joriy etilayotgani buning sabablaridan biridir. Mehnat unumdorligi va ekin hosildorligining pastligi shuning oqibatidir. «Shuning uchun ham, — deydi I.A. Karimov, hozirda qishloq xo`jaligida band bo`lgan ortiqcha mehnat qiluvchilarni sanoatga, xizmat ko`rsatish sohasiga jalb qilish agrar siyosatimizning g`oyat muxim yo`nalishidir».

Qishloqda asosan zamonaviy texnologiyalarga ega kichik korxonalarni ochish xisobiga yangi ish o`rinlarini yaratish bilan bog`liq vazifa ustuvor hisoblanadi. Bunday korxonalarda qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlabgina qolmay, xalq hunarmandchiligini, kosib hunarmandchilik ustaxonalarini rivojlantirish, kasanachilikning turli shakllaridan va shu

kabilardan keng foydalanish ham mumkin. Bular yoshlar psixologiyasi rivojlanishining barcha jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu juda murakkab vazifa, chunki qishloqda tubdan yangi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yaratish, kommunikastiya o'tkazish, zamonaviy maishiy xizmatni va boshqa servis turlarini yo'lga qo'yish zarur. Bu tizim hozircha mavjud emas. Respublika xalq xo'jaligida band aholining 8 foizigina maishiy xizmat tizimida ishlamoqda. Erga sohiblarcha, avaylab munosabatda bo'lish tomon yuz burish agrar siyosatdagi eng muhim yo'nalishdir.

Qishloq yoshlarining hozirgi avlodiga xos xususiyatlardan biri shuki, ularning bilim darajasi, garchi shahar yoshlarinikiga qaraganda birmuncha pastroq bo'lsa ham, doimiy ravishda oshib bormoqda. Bizningcha, shahar va qishloq aholisi bilim darajasi o'rtasidagi farq asosan katta yoshlilar hisobiga saklanib kelmokda. Katta yoshlar o'rnini yangi avlod egallagani sari yaqin o'n yillar ichida bilim darajasidagi tafovut asosan tugatiladi yoki kamayadi, deb taxmin qilish mumkin. Prognoz bundan yaxshiroq ham bo'lishi mumkin, chunki shahar va qishloq yoshlarining kelgusi avlodlari bilim darajasidagi farq yanada kamayadi¹.

Qishloq yoshlari hayotiy rejalarini o'rganish ularda o'zaro bog'liq ikki maqsad: **ta'limni davom ettirishga intilish** va **ixtisos egallash istagi** etakchi o'rinda turishini ko'rsatdi. Aynan shu ikki maqsad yoshlarning boshqa pozistiyalariga — mehnatga munosabati, malakali ishni afzal ko'rishi, o'z ahvolidan qoniqish darajasi, shaharga ko'chishi, madaniy talab ehtiyojlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bilim darajasi — yoshlar ma'naviy qiyofasining shaxs qadriyat yo'nalishining barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy element, deb hisoblash mumkin.

Bu, ayniqsa, 16-22 yoshli qishloq yoshlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi: ta'limni davom etgirish hamda ixtisos egallash uchun qishloqni tashlab ketadiganlarning ko'pchiligi ayni shu yoshdagilardir. 23-26 yoshdagilar orasida esa bu holat birmuncha kamayadi. Qishloqni tashlab ketishga intilishni belgilab beruvchi asosiy sabablar 16-17 yoshlilar uchun — o'qish va ixtisos egallash;

18-22 yoshlilar uchun — madaniy maishiy sharoit va ish xususiyati; 22-26 yoshlilar uchun — turmushi yo`lga qo`yilmaganligi va ish haqidan qoniqmaslikdir. Bu hol shu paytga kelib yoshlarning bir qismining oilasi, farzandlari borligi va yangi yangi tashvishlar oldingi qatorga chiqishi bilan bog`liq bo`lsa ehtimol.


26-29 yoshlilar, odatda, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishida o`zining ahvolini yaxshilab olishga intiladi. Bu yoshdagilar anchagina hayotiy tajribaga, obro`-e`tiborga ega bo`lishadi, ular uchun kasbni to`liqroq egallashga intilish, halol mehnat qilish, malakani oshirish, jamoadagi, oiladagi o`zaro munosabat, farzand tarbiyasi ustun o`rin tutadi. Turli yosh guruhiga oid qishloq yoshlarining hayotiy rejalarini o`rganishga tabaqalashtirilgan yondashuv migrastiya sabablari to`g`risida ayrim xulosalar chiqarish imkonini beradi.


16-22 yoshlilarning qishloqdan ketishining asosiy sababi ta`limni davom ettirish hamda ixtisos egallash bo`lgani uchun o`quv yurtlarining hududiy jihatdan yanada bir tekis joylashuvi, fikrimizcha, migrastiya oqimini qisqartirishi mumkin. Yirik qishloqlarda, tuman markazlarida Kasb-hunar kollejarini tashkil etish yoshlar ahvolini barqaror holga keltirish uchun qulaylik yaratadi.


Hozirgi sharoitda qishloqlarda madaniyat muassasalarini barpo qilishgina emas, balki axloqiylikni tarbiyalash, sobiq e`tiqod va odatlarni, xulq-atvor madaniyatini hosil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo`jalik mehnati bilan band xodimlarning bo`sh vaqtini ko`paytirish shaxsni tarbiyalashda bo`sh vaqtning rolini kuchaytirishga olib keladi. Shu bilan birga qishloq yoshlarining ko`pgina qadriyat yo`nalishi mo`rtligi bilan ajralib turadi. Qishloqda bo`sh vaqtida biron ish bilan muntazam band bo`lganlar kam. Bular qishloq yoshlarining ijtimoiy rivojlanish jarayoni kechib turgan bo`lsada, juda notekisligi bilan ajralib turishi to`g`risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov: «Butun mas`uliyatni zimmaga olgan holda shuni e`tirof etish kerakki, qishloq xo`jaligini isloh qilishga qaratilgan barcha choratadbirlarga qaramay, bu tarmoq hali hamon mamlakatimiz iqtisodiyotida joriy etilayotgan islohotlarga, bugungi hayotning


o`zi taqozo etayotgan o`zgarish va talablarga amal qilish yo`lida eng og`ir soha bo`lib qolmoqda va buning asosiy sababi, avvalo, o`z umrini yashab bo`lgan eski ma`muriy buyruqbozlik tizimidan, odamlar ongida chuqur ildiz otgan o`tmish qoliplaridan qutulish jarayonining juda qiyin kechayotganida desak, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz.


Boshqacha aytganda, ko`pgina hollarda shakl o`zgarib, mohiyat, ma`no mazmun esa eskicha qolmoqda», — deb alohida ta`kidlagandi. Mehnat xarakteri, bilim darajasi aslida ijtimoiy va shaxsiy hayotning boshqa bir qator sohalaridan oldinda borishi lozim.











FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent. “O'zbekiston”, 2003 y
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi”gi Qonuni – Toshkent: 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliydasturi. – Toshkent: 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi 2006 yil 25 avgustdagi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir” nomli ma'ruzasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2008 yil 29 fevraldagi PQ805 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlar yili" Davlat dasturi.
7. I.A.Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2008 yil
8. I.A.Karimovning “YUksak ma'naviyat engilmas kuch” Toshkent. “Ma'naviyat” nashriyoti 2008 y.
9. Karimovning I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori Toshkent: "Sharq" 1997 y.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li" nomli ma'ruzasi. 2007 y.
11. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi Toshkent "Sharq" 2002 y.
12. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi 390sonli qarori. Ta'lim taraqqiyoti. 1Maxsus son. Toshkent. "Sharq" 1999 y

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203 sonli "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi qarori. Ta'lim taraqqiyoti. 1son. Toshkent: 1998 y 7781 betlar.
14. Asosiy maqsadimiz yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi Xalq so'zi, 2007, 8 dekabr/
15. "Yoshlar yili" Davlat dasturi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: 2008 yil, 29 fevral / Xalq so'zi, 2008, 1 mart/
16. "Barkamol avlod yili davlat dasturi" Toshkent 2010.
17. Matrasulov D. Yoshlar istiqboli yo'lida g'amxo'rlik qilish, kelajak avlod tarbiyasi uchun qayg'urish, o'z ertiasini o'ylash mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishidir: 2008 yil "Yoshlar yili" /Inson va Qonun. 2008, 10 iyun/.
18. Mirzo G'. Yosh avlod xuquq va manfaatlarining muxim kafolati: 2008 yil "Yoshlar yili" /Xalq so'zi. 2008, 4 iyun/
19. Saifnazarova F. Ertamizni hal qiluvchi kuch: 2008 yil "Yoshlar yili" /Ma'rifat. 2008, 24 may/
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 17 yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2008 yil, 12 iyun /Xalq so'zi. 2008, 19 iyun/
21. Jonixonov M. Ulug'imsan Vatanim: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 17 yilligiga /Xalq so'zi. 2008, 10 iyul/
22. Mangu barhayot sha'ar: Mustaqillik darslarini o'tish yuzasidan qo'shimcha tavsiya /Ma'rifat. 2007, 29 avgust/
23. A.Mavrulov "Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi" Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2008 yil
24. E.Bobomurodov, SH.Bobomurodova "O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy psixologiyasi" Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2010 yil